

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta - maxsus talim vazirligi
Toshkent davlat sharqshunoslik instituti

Qo'lyozma huquqida

UDK

Polvanov Azim Kuchkarovich

“Tarixi Rashidiy” asarida Sharqiy Turkiston va Tibetga oid ma'lumotlar

5A220204 Tarixshunoslik, manbashunoslik va tarixiy tadqiqotlar metodlari

Magistrakademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: t. f.n., Soatova S.

Toshkent 2012

Magistrlik dissertatsiyasi himoya qilinishiga ruxsat berildi:

Magistratura bo`limi boshlig`i

Habibullaev A

MUNDARIJA

KIRISH	3-8
I BOB I Bob. «Tarixi Rashidiy» tarixiy manba sifatida	
I.1. Muhammad Haydar mirzoning hayoti va faoliyati.....	9-19
I.2. Asarning yaratilish tarixi va uning ahamiyati.....	19-37
II BOB Sharqiy Turkiston tarixiga oid ma'lumotlarning tarixiy tahlili	
II.1. Asarda Sharqiy Turkiston tarixiga oid ma'lumotlar tasnifi.....	38-50
II.2. Asarda Sharqiy Turkiston aholisining etnografiyasiga oid ma'lumotlar.....	50-54
III BOB Asarda Tibet tarixi va etnografiyasiga doir ma'lumotlarning yoritilishi	
III.1. Tibet o'lkasi tarixiga doir ma'lumotlar tahlili.....	55-65
III.2. Asarda Tibet aholisi etnografiyasining yoritilishi.....	65-73
XULOSA	74-77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	78-79

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, o'zligimizni anglash, ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy-ma'naviy merosni o'rganish muhim vazifalardan bo'lib qoldi. Har bir davlat, xalq taraqqiyot yo'lidan borar ekan, o'tmishga nazar solmay iloji yo'q. Mamlakatimiz rahbarining bu boradagi harakatlari, davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtboshimiz Islom Abdug'anievich Karimov ta'kidlaganlaridek, "Bugun bizning oldimizda shunday tarixiy imkoniyat paydo bo'ldiki, biz bosib o'tgan yo'llarimizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimizdagi boy an'analarimizni yangi jamiyat qurilishiga tadbiq etmog'imiz kerak".¹ Yurtboshimiz tarixchi olimlar bilan bo'lgan uchrashuvda tarix fanining yangi yo'nalishlarini belgilab, milliy tariximizga yangicha yoidashuv, uni asl manbalar asosida yoritib, chuqur tahlil qilishni ta'kidladilar.² Har bir tarixchi Prezidentimiz ko'targan masalalarni baholi qudrat yoritib, xalqimiz tarixini o'rganilishiga munosib hissa qo'shishi lozim.

"Insoniyat XXI asr bo'sag'asida turibdi, jahondagi barcha xalqlar qatori o'zbek xalqi ham kirib kelayotgan XXI asrga katta ishonch va umidlar bilan qadam qo'ymoqda. Amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning keng o'rganilishi, an'analarimizning tarqalishi, madaniyat va san'at fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir".³ Haqiqatdan ham yurtboshimizning ushbu gaplarida o'lgan ma'no bor. Biz tariximizning buyukligini eng avvalo aniq isbot dalillar bilan ko'rsatishimiz mumkin. Bizga bu sohada yurtimizdan yetishib chiqqan alloma va tarixchilarning bizga qoldirgan ilmiy merosi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bizga ma'lumki Markaziy Osiyo xalqlari haqida yozilgan fundamental

¹ Каримов И. Ватан саждагоҳ каби муқаддас. – Т., Ўзбекистон. 1995, -Б.176.

² Каримов. И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Т.: Шарқ нашриёти-матбаа консерни бош тахририяти, 1998.

tarixiy asarlardan Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» («Zafarli yurishlar dostoni»), Fazlulloh Rashiddinning «Jome' ut-tavorix» («Tarixlar to'plami»), Hamidulloh Mustavfiyning «Tarixi guzida» («Saralangan tarix»), Otamalik Juvayniyning «Tarixi jahonkushoy» [(«Fotihlik tarixi»), Muhammad Mirxondning «Ravzat us-safo» («Poklik bog'i»), Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», Shermuhammad Munisning «Firdavs ul-iqbol» («Saodat bog'i»), Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarlari qatorida Muhammad Haydar mirzoning «Tarixi Rashidiy» asari ham alohida o'rin tutadi. O'zbekiston va jahon tarixchi olimlari bugungi kunda Markaziy Osiyoning o'rta asrlarga oid tarixini o'zida jamlagan asarlar qatorida mazkur asar ham tilga olinmoqda. «Tarixi Rashidiy» nafaqat Mo'g'uliston, ayni paytda O'rta Osiyoning o'sha davrdagi yirik shaharlari Andijon, Toshkent, Xo'jand, Sayram, Turkiston, O'ratepa, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Hisor, Qunduz, Marv va boshqa mamlakatlar: Afg'oniston, Pokiston, Hindiston, Sharqiy Turkiston, Tibet va Kashmirning XU-XU1 asrlardagi tarixini o'rganishda asosiy manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunga kelib manbalardan keng foydalanish uchun imkoniyatlar ochildi, endi ularni xolisona va haqqoniy o'rganib xalqimizning buyuk tarixga ega ekanligini ko'rsatish vaqti keldi. "Ko'chmanchilar, bosqinchilar kelib ketaveradi, lekin xalq boqiy qoladi, uning madaniyati abadiy yashaydi"⁴ deb ta'kidlashlari bejiz emas.

Shu bois mazkur asar Qoshg'ar, Yorkand, Xo'tan, Tibet viloyatlaridagi shaharlardan tortib, moddiy madaniyat na'munalari, tabiiy- iqlim sharoiti hamda bu hududlardagi xalqlarning urf-odatlar, rasmu qoidalari imkon boricha kuzatilib, aniqlanib batafsil bayon qilingan. Shu narsa aniqki, bu viloyatlarning tarifi va biz tadqiq etayotgan hududdagi mo'g'il xonlarining zikri boshqa birorta kitobda bu darajada batafsil bayon qilinmagan. Garchi ba'zi tarixiy asarlarda tasodifiy ayrim fikrlar aytilgan bo'lsa-da, ular ancha qisqa ma'lumotlardir. "Tarixi Rashidiy" asarida avvalo podshoh va xonlarning olti sulolasi silsilasi keng ufqlarda juda

³ Каримов И. Ўзбекистон XXII асрга интилоқда, Т, Ўзбекистон/ 1999, -Б. 18.

⁴ Каримов И. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. Т. Ўзбекистон. 1999.

ustalik bilan tiziladi va ularning tutashuv halqalariga alohida ahamiyat beriladi: Temuriylar Boburiylar, Shayboniylar, Mo'g'ul xonlari, Qozoq xonlari, Safaviylarning shajaralari uzviy muntazam tarixiylikda yoritiladi. Bundan tashqari asarda qirg'iz biylari hukmronligi ham alohida tilga olingan. Mashhur tarixiy fundamental asarlarda bunchalik ko'p sulolalar shajarasining yoritilishi kamdan kam hollarda kuzatiladi.

«Tarixi Rashidiy»da keltirilgan, hamda XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyodagi tarixiy voqea- xodisalarning, adabiy-madaniy, tarixiy siymolar hayoti va faoliyatlarini yoritishdagi mushtarakligi uchun ham lutfan «Tarixi Rashidiy»ni forsiy tiladagi ikkinchi «Boburnoma» deyish mumkin. «Tarixi Rashidiy»ning ahamiyati ustida to'xtalganimizda bu qomusiy asarning «Boburnoma»da yozilishi lozim bo'lgan, ammo yozilmagan voqealarini aniqlash, to'ldirishda, Gulbadanbeganing «Humoyunnoma», Xondamirning «Xabib us-siyar» («Do'stlar tarjimai xoli») asarlaridan ko'proq, ma'lumotlar beruvchi noyob manba ekanligini inobatga OLISHIMIZ darkor.

«Boburnoma» tarixiy asardan ko'ra, tarixiy biografik asar deb atashga munosibroq, ammo «Tarixi Rashidiy»da aksincha memuar asarga nisbatan tarixiylik ustivorlik qiladi. Shuning uchun «Vaqoe'» («Boburnoma»)da asosan Bobur mirzo o'z hayoti haqida yozgan bo'lsa, Muhammad Haydar mirzo siyosiy, ijtimoiy jarayonlar bilan bog'lik, voqealarni asarga ko'proq, kiritadi. Shu ma'noda «Boburnoma» ijodkorida adiblik salohiyati, «Tarixi Rashidiy» muallifida tarixchilik iqtidori ustuvorlik qiladi. Bu asar XV-XVI asr Markaziy Osiyo tarixida Sharqiy Turkiston va Tibet xalqlari tarixini chuqur hamda kengroq tadqiq qilinishiga katta yordam beradi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. «Tarixi Rashidiy» XVIII asrdan to bugungi kunga qadar dunyoning qariyb o'ndan ortiq tillariga tarjima qilingan. Jumladan, INGLIZ (bir necha marotaba), nemis, fransuz, xitoy, qozoq, turk, uyg'ur, rus, qirg'iz va boshkalar. Bu esa asarni ham o'rganish, ham tadqiqotlarda foydalanish imkoniyatini kengaytirdi. Muhammad Haydar mirzoning «Tarixi Rashidiy» asarini forsiy tilda nashrga tayyorlagan, ilmiy- tanqidiy matnini yaratgan,

o'z tillariga tarjima qilib ilmiy muomalaga kiritgan: Muhammad Sodik, Koshg'ariy, Mullo Muhammad Niyoz Abdulg'afur o'g'li, INGLIZ olimlari Denison Ross, Uilyam Erskin, Tomas Arnold, Amerika olimi Uiler Tekston, fransuz olimi Rene Grosse, Eron olimlari Husayn Razmju, Kozi Ahmad Tataviy, o'zbek olimlari Hamidulla Xasanov, Bo'riboy Ahmedov, Asomiddin O'rinboyev, Azamat Ziyoy, Sabohat Azimjonova, Omonbek Jalilov, G'ulom Karim, Ra'no Jalilova, Larisa Yepifanova, kozoq. olimlari Abdusattor Derbesali, Islom Jemeney, B. Komakov, Bayuzak Kojabekuli Albani, uyg'ur olimlari Ayupjon Eliyup, Raxmatulla Joriy, Muhammadturdi Mirzoaxmat, Farhod Jolan, Mirsulton Usmonov, rus olimlari V.V.Bartold, V.V.Velyaminov-Zernov, T. Sultanov, ozarbayjon olimi Aziz Mirahmedov, hind olimi Muhammad Qosim Hindushoxlarning o'lgan xizmatlarini kayd etish darkor.

“Tarixi Rashidiy” ni tarjima qilgan marhum olim Asomiddin O'rinboyevning xizmatlari kattadir. Bu asardagi voqealar kechgan muzofot hududlarning deyarli bir qit'a doirasigacha kengligi, asar tilida qadimiy turkiy, mo'g'il, hind, uyg'ur, qalmoq, pomir, xitoy, kashmir, tibet, arab, forsiy so'z istilohlarining ko'pligini kayd etish joiz. Chunki muayyan bir so'z kayd etilgan tillarda XVI asrda qanday bo'lsa, hozir ularning ayrimlarigina saqlanib qolgan. Buning ustiga arab imlosidagi yozuvda bir so'zning har xil o'qilishi hususiyatlari tarjima ishini qiyinlashtiradi. Nushalar orasidagi farqlar shu jarayonni yanada murakkablashtiradi. Bunday qiyinchiliklarga qaramasdan asarni mukammal o'rganib tarjima qilgan tarixchi olimlarning hissasi diqqatga sazavor.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Tadqiqotning asosiy maqsadi XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo mintaqasi, xususan Sharqiy Turkiston va Tibet xalqlari tarixiga oid ma'lumotlarni o'rganish va tahlil etish, mazkur hududlarda yashovchi aholining etnografiyasiga doir ma'lumotlarni klassifikatsiya qilish, hamda o'sha davrda yozilgan boshqa asarlar bilan qiyosiy tahlil etish, ma'lumotlarning holisona va haqqoniy yoritilganligiga e'tibor qaratishdan iborat. Shu asnoda quyidagi vazifalar belgilandi:

- asarning yaratilish tarixi va tarixshunosligiga doir masalalarni

tahlil etish;

- Muhammad Haydar mirzoning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarni o'rganish;
- asardagi Sharqiy Turkiston tarixiga oid ma'lumotlar tasnifini bayon etish;
- Tibet o'lkasi tarixiga doir ma'lumotlarni tahlil etish;
- asardagi Tibet aholisi etnografiyasiga oid ma'lumotlar klassifikatsiya qilish va yoritishdan iborat.

Tadqiqotning uslubiy asoslari. Mustaqillik mafkurasi zahirida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning tarixchi olimlar oldiga qo'ygan vazifalari hamda hukumatimizning tarix fanini yangi yondashuvlar bilan, ayniqsa birlamchi manbaalar negizida yaratish, tarixni yangicha konseptual – metodologik yo'nalishlar asosida tadqiq etilishi tashkil qiladi.

Tadqiqodning ilmiy va amaliy yangiligi shundan iboratki, shu vaqtgacha “Tarixi Rashidiy” asaridagi Sharqiy Turkiston va Tibetga oid ma'lumotlar, yaxlit kompleks asosida, hamda bir tadqiqod doirasiga jamlanib atroflicha o'rganilmagan. Mazkur dissertatsiya ishida, ilk bora asardagi Sharqiy Turkiston va Tibetga oid ma'lumotlar yaxlit xolda tasniflanib, boshqa manbalar bilan taqqoslanib, o'rganishga harakat qilindi. Natijada Sharqiy Turkiston va Tibetga oid tarixiy, madaniy, geografik, etnografik ma'lumotlarni bir tizimga solinib boshqa manbalar qiyosiy tahlil etildi.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, dissertatsiya ma'lumotlari Markaziy Osiyo xalqlari tarixiga oid ayrim risola, o'quv qo'llanmalari, ma'ruza matnlarini yoritishda foydalanishi mumkin.

Ishning tarkibiy tuzilishi uch bobdan, olti paragrafdan (I:2; II:2; III:2;), xulosa foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Birinchi bobda muallif, ya'ni Muhammad Haydar mirzoning hayoti va faoliyatiga doir, hamda “Tarixi Rashidiy” asari haqidagi ma'lumotlar joy olgan. Ikkinchi bob Sharqiy Turkiston hududiga oid ma'lumotlarga bag'ishlanadi. Bobning birinchi qismida Sharqiy Turkiston tarixiga oid ma'lumotlar tasniflab o'rganib chiqildi. Ikkinchi qismida Sharqiy Turkistonga

oid etnografik ma'lumotlar tadqiq etildi. Uchinchi bob Tibet o'lkasi va aholisining tasvirlanishi deb nomlanadi. Bobning birinchi qismida asarda keltirilgan Tibet tarixi, geografiyasi oid ma'lumotlar o'rganiladi. Ikkinchi qismda esa Tibet aholisi etnografiyasiga oid ma'lumotlar o'rganilib tahlil qilindi.

I. BOB «TARIXI RASHIDIY» TARIXIY MANBA SIFATIDA.

I.1. Muhammad Haydar mirzo hayoti va faoliyati.

Muhammad Haydar mirzo Zaxiriddin Muhammad Bobur Podshohga yaqin qarindosh bo'lib, bu xaqda «Tarixi Rashidiy»ning muallifi Muhammad Haydar mirzo shunday yozadi « Mo'g'uliston xoni Yunusxonning xotini Esan Davlat begimning katta qizi Mehr Nigor xonim bo'lib, uni Sulton Ahmad mirzoga berishgan. Undan kichigi Kutlug' Nigor xonimni Umarshayx mirzoga berishgan, undan Zaxiriddin Muhammad Bobur Podoh va Xonzodabegim tug'ilgan. Yunusxonning kizlaridan uchinchisi Xub Nigor xonimni otamga berishgan, u mening onam bo'lgan⁵». Demak, Haydar mirzoning onasi Boburning onasiga singil bo'lib, Bobur mirzo va Haydar mirzo xolavachchalardir. Fakat shunisi borki, Bobur Mirzo Haydar mirzodan o'n olti yosh kattadir va Bobur mirzo Andijonda, Haydar mirzo Toshkentda tug'ilgan.

Muhammad Haydar mirzo 1499 yili Muhammad Husayn mirzo oilasida dunyoga kelgan. Xub Nigor xonim vafot etib, Haydar mirzo onadan juda yosh ayriladi: «Xub Nigor xonim, kaminaning onasi, tinchlik-omonlik kunlarida Toshkandda vafot etgan edi», - deb yozadi bu xaqda muallif. Muhammad Husayn ko'ragonning shajarasi ajdodlariga kelsak, Muhammad Haydar mirzoning otasi Muhammad Husayn, u Muhammad Haydar o'g'li, u Sayd Ali o'g'li, u Sayd Ahmad o'g'li, u Amir Xudoydod dug'lat o'g'lidir. Muhammad Husayn mirzo birmuncha muddat O'ratepada xokimlik qilgan. Bobur Shayboniixonidan yengilib tog'asi Sulton Maxmudxonidan O'ratepani so'rganida xon ko'ngan-u, Muhammad Husayn rozi bo'lmagan. Bobur o'z yaqinlari bilan vatandan ko'ngul o'zib Kobulga ketganida, Muhammad Husayn ham keyinroq Qobulga borgan edi. 1506 yili Bobur Xirotda Sulton Husayn mirzo ta'ziasiga borganida, Kobulda Sulton Maxmud mirzoning o'g'li, Mirzoxon Kobul saltanatini egallashga urinadi va

⁵ Мухаммад Хайдар Мурзо. Тарихи Рашидий. Т.: И. Шарқ .2010. –Б.13.

Muhammad Husaynni ham bu isyonga jalb etishadi⁶. Bobur kelib taxtini kayta egallagach, Mirzoxon va Muhammad Husaynga istagan joyga ketishga «ruxsat» beriladi.

Kobuldagi isyonga xotima berish voqeasida Muhammad Husayn xaqida Bobur «Boburnoma»da quyidagilarni yozadi: «Muhammad Husayn mirzo qurquvdan xonimning to'shakxonasiga kirib, to'shakning bug'jamasiga o'zini bog'latipti. Qurg'ondagilardan Mirim devon va yana ba'zilarni bu uylarni axtarib, Muhammad Husayn mirzoni topib kelish uchun yubordik. Har holda Muhammad Husayn mirzoni topib, arkda mening qoshimga keltirdilar. Men burungidek ta'zim qilib o'rnimdan turdim, uncha ko'pollikka bormadim. Muhammad Husayn mirzoni, bundai xunuk va tuban harakatga kadam kuygani, bunday g'avg'o va fitna ishlarga bosh qo'shgani uchun burda-burda kilsam o'rinli edi. Orada har holda karindoshchilik bor edi: mening tug'ishgan xolam Xub Nigor xonimdan o'g'il-qizlari bor edi. Bu xuquqni eslab, Muhammad Husayn mirzoni ozod qildim. Xuroson sari ruxsat berildi. Bu muruvvatsiz va xaqni tanimaydigan kishi mening bunday yaxshiligimni, ya'ni jonini omon koldirganimni butkul unutib, Shayboniyxon qoshida mendan g'iybat va shikoyatlar qilibdi».⁷

Endi Kobuldagi isyonga Muhammad Husayn alokasini Muhammad Haydar mirzo talqinida o'qib ko'raylik. Nazarimizda muallif voqea mohiyatini farzand sifatida ancha yumshatishga harakat qilgan. «Tarixi Rashidiy»dan: «Oxir-oqibat Bobur Podshoh o'rniga Mirzoxonni podshoh qilish payiga tushib qolishdi. Otamga bu xaqda maslahat solishganda otam bu fikrni keskin rad qildi... Ular behad haddan oshishgach, otam: «Men rad kilganim bilan ular o'z rejalaridan qaytishmaydi. Yaxshisi, bu ishga aralashmaganim ma'kul» dedi... Otam Kobuldan bir kunlik yo'l naridagi Obi Boron degan joyga ketdi va o'zini bu ishdan chetga oldi... Shohbegim otamga kishi yuborib, kelishini qattik, talab qildi. Bunday kat'iy talablar haddan oshgach, otam nochor kolib kelishga majbur bo'ldi. Yigirma to'rt kun Kobul kal'asini kamal qilib turishdi. Bu orada Bobur Podshoh kelib

⁶ Ўша асар. –Б.14.

⁷ Захириддин Мухаммад Бобур.Бобоурнома.Т.Шарқ.2002

qoldi...Yaxshilik va muruvvat Bobur Podshoxga xos sifatlar edi, u xech bir kek saqlamay, shod-xurram holda ugay buvisining oldiga kirdi. Shohbegim undan yuz ugirib, o'z tug'ishgan nevarasini podshoh qilib ko'targan edi. Shohbegim Podshoxni ko'rgach, hijolat bo'lib, tiliga biror so'z kelmay qoldi... Amirlar va butun lashkar Alloxning marhamati uchun shukronalar aytishib, Podshox, izining tuprog'ini ko'zlariga surishdi. Uning izidan Mehr Nigor xonim Mirzoxon bilan otamni boshlab keldi... Podshoh Mehr Nigor xonim istiqboliga chikdi. Xonim: «Ey jonim bolam! Sening xo'zuringta singlimning gunohkor erini va noloyik ishlar qilgan birodaringni olib keldim, bo'nga nima deysan?» dedi va otamga ishora qildi. Bobur Podshox, otamni ko'rgach, shosha-pisha, ilgarigi rasm-odatga ko'ra ta'zim qilib, xursand bo'lib, kulib u bilan quchoqlashdi, mehribonlik bilan SOG'LIGINI, axvolini so'radi. Keyin Mirzoxon tomonga o'girilib o'nga mehr muhabbat, iltifotlar izhor qildi. U himmat va muruvvat, ular bilan samimiy suxbatlashdi va kaysi yo'lni tanlashni: ketishadimi yoki u bilan kolishadimi, o'zlarining ixtiyoriga qo'yib berdi. Ular hijolatdan boshlarini ko'tarolmay kolishdi. Bag'ri keng Bobur Podshoh, bularning hijolat g'uborlarini odamgarchilik va yaxshilik suvi bilan yuvishga harakat qildi. Ammo u bo'lmag'ur QILG'ILIKNING HIJOLATPAZLIGI ularning ko'ngil ko'zgidan ketmadi. Otam bilan Mirzoxon Qandaxorga ketishga ruxsat olishdi»⁸.

Muhammad Husayn ko'ragon o'g'li, Haydar mirzoni Xirotda olib ketadi. Uning ilk savod chikarishi davri xat mashq qilishlari 1506-1509 yillarga to'g'ri keladi. Natijada u 3-4 yil Xirotda bo'ladi va adabiy-madaniy xayotdan yaxshi xabardor bo'ladi. Uning husnixatdagi ustozlari Mavlono Muhammad Abrishimiy bo'lganligi «Tarixi Rashidiy»da kayd etilgan.

Haydar mirzo maktabga o'z ilk qadami xususida yozadi: «Otam Xurosonga kelganidan keyin bir necha kun o'tgach, bola to'rt yoshu to'rt oyu to'rt kunlik bo'lganda maktabga berish odatiga ko'ra, meni maktabga bermoqchi bo'ldi va oq fотиha olish uchun avval shayxulislom oldiga olib bordi va u kishidan menga saboq, berishni so'radi. Shayx: «Allox yengillik beradi» deb yozdi va g'oyatda

⁸ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий.. Т. ИШарқ .2010. –Б.15.

muloyimlik hamda mehribonchilik bilan meni tizzasiga o'tqazib, shirin so'zlar bilan menga sabok berdiki, o'sha paytdan beri o'ttiz sakkiz yil kechgan bo'lsa-da Shayxning muborak yuzi, uning saboklari va mehribonchiligi naqsh xuddi toshga o'yilgandek xotiramda qolgan. Ishonchim komilki, o'sha sabokdarning shu kunlargacha yetib kelgan sharofati bu dunyoda ham, oxiratda ham yetib turadi, inshoolloh».⁹

Deyarli o'ttiz yil davomida din ma'rifati bobida Xirotda yagonai davron bo'lgan shayxulislom Sayfuddin Ahmad xaqidagi Haydar mirzoning qaydlarini o'qiylik: «Shayxulislom Sulton Husayn mirzo xukmronligi davridan boshlab to Shoh Ismoilning Shohibekxon (Shayboniyxon) ustidan g'alaba qilguniga qadar shayxulislom edi. Shu muddat ichida u shunchalik taqvo, diyonat va avliyolik ko'rsatdiki, Shayxning so'zlariga e'tiroz bildirgulik zot topilmas edi. O'sha davrning ko'plab ulamolari uning shogirdlari edi. Ular uning shogirdi bo'lganliklaridan g'ururlanib yurishardi: Shayxulislom (Sayfuddin Ahmad) huzuridan ketishayotganda ulamolar: «Insonning xayotda shunchalik ko'p bilimni tuplaganiga xayron kolasan kishi» deya xayrat izxor kilishardi. Shayxning darslari yigirma to'rt yil davomida shu tarika kechdi va bu olimlar hamisha Shayxga muxtojlik sezishdi»¹⁰.

«Otam Xirotda birinchi marta kelganida men uchun ustoz muallim topgan edi. U hofiz Mirim ismli taqvodor, olim kishi edi. Darhaqiqat, u mo'min, hofizi Kur'on, turli fazilatlariga ega bo'lgan kamsuqum inson edi. Qur'onni yokimli ovozda qiroat kilar, nasxta'lik, xatida yaxshi yozar edi. U meni Qur'onni qiroat kilishga va hattotlikka o'rgatar edi...»¹¹.

1509 yilda Shayboniyxon Muhammad Husaynni yashirincha qatl ettiradi. Muhammad Husayn ko'ragon Xirotdagi amir Sayd Husayn Sodot qabristoniga qo'yilgan.

Ubaydulloxxon Haydar mirzoning pochchasi edi.«Tarixi Rashidiy»da bu xaqda yoziladi: «Ubaydulloxxon degan sulton bor edi. Ko'plab yurish va bosib

⁹ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. II. Шарқ, 2010. –Б.15

¹⁰ Ўша асар

¹¹ Ўша асар

olishlar o‘shaning nomi bilan bog‘liq, edi. U otameros podshohligining markazi bo‘lgan Buxoroga jo‘nadi. U otamdan mening u bilan birga ketishimga ruxsat so‘radi... Otamning tung‘ich farzandi - qizi Xabiba Sulton Xonish edi... Otam Shaxrisabzdan qochgan vaktida Shohibekxon o‘sha kizni Ubaydullox sultonga bergan edi. Otamdan ijozat olib Ubaydullox, meni Buxoroga, opam oldiga olib keldi»¹².

Shayboniy o‘nga o‘smir Haydar mirzoni Amudaryosiga chuktirish haqida buyruk, beradi. «Tarixi Rashidiy»dan: «Ana shunday qahri qattiq, zulmkoru qudratli hukmdor meni o‘ldirish qasdigaga tushdi. Hali yoshim bolalikning yarmidan ham o‘tmagan edi. Men Hali o‘ng qo‘limni chap qo‘limdan, yaxshilikni yomonlikdan ajratolmasdim. Hali ovkat topib yeyishga kuchim yetmas, aqlim ham biror narsani o‘zimcha hal kilish darajasida emas edi. Ota-onasiz yetim bo‘lib oldim. Amakilarim har qayoqqa tarqalib ketishgan, tog‘alarim shahid bo‘lgan, menga g‘amxurlik qilsa bo‘ladigan akam ham, ko‘nglimga taskin beradigan qarindoshim ham yo‘k edi...Men Buxoroda, ajalning Og‘zida, Shohibekxon tasarrufidagi yerlarning markazida edim...Mendek nochor va ojiz bolakayni o‘ldirishga chog‘langan Shohibekxon shuncha buyukligi va kudrati bilan hatto boshimdagi bir tola sochimni ham o‘zolmadi. O‘n sakkiz ming olamni yaratgan, mislsiz kuch-kudrat, buyuklik sohibi bo‘lgan yagona zotga, Allohu subxonahu va taologa va uning farishtalariga hamdu sanolar bulsin!»¹³.

Xoja Hypo Haydar mirzoning ustozlari Mavlono Muhammadga bolani olib qochish masladatini beradi. Ustozlari uni ming bir azobu taxlikalar ostida Badaxshonga Mirzoxon xo‘zuriga yetkazishga muvaffak, bo‘ladi. Zaxiriddin Muhammad Bobur Mirzoxonga chopar yuborib, Muhammad Haydar mirzoni xavfxatarsiz makon Kobulga jo‘natish haqida buyruk beradi. Haydar mirzo ustozlari bilan o‘n olti kishi Kobulga jo‘naydilar va u yerga yetib boradilar.

Haydar mirzo «Tarixi Rashidiy»da Bobur Podshoxning o‘nga ko‘rsatgan mehr-osibati haqida g‘oyatda to‘lkinlanib yozadi:

¹² Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. II. Шарқ. 2010. -Б. 17

¹³ Ўша асар. -Б. 17

«Men Bobur Podshoxning xizmatiga kelganimda, uning baxt nurlari balqib turgan nazari menga tushgani zaxoti cheksiz raxm-shafqat va poyonsiz mehr-muhabbat tufayli injularidek ko‘z yoshlari nurli ko‘zlaridan ipga tizilgan durlardek tukilardi. U mehribonlik bilan menga karadi. Marhamatli qo‘lini men tarafga o‘zatdi va yaqin kelgin deb ishora qildi.

Tiz cho‘qib salom bergandan keyin yaqin bordim. U meni rahm-shafkat quchog‘iga olib, otalik mehri bilan bag‘riga bosdi. Ancha vakt quchog‘ida ushlab turdi. Men ta‘zim rasmini ado qilmoqchi bo‘lgandim, bo‘nga yo‘l bermay, yoniga o‘tkazdi. Cheksiz kuyunchakligidan ancha vakt o‘zini bosolmay, ko‘zlaridan duv-duv injular tukdi. Shunda u mana bu gaplarni aytdi: «Sening otang - pochcham, mening tog‘am - xon, sening aka-ukalaring, qarindosh-urug‘laring shahidlik sharbatini ichishdi, Alloxga beadam shukurki; sen mening yonimga eson-omon kelding. Endi ulardan ayrilganingga xech ham g‘am chekma. Chunki men ularning o‘rnini ortig‘i bilan bosaman. Ulardan qanchalik mehr-muhabbat va raxm-shafkat kutish mumkin bo‘lsa, shularning hammasini, hatto undan ham ko‘pini men senga bera olaman»¹⁴.

“U menga shunday mehr-shafkat ko‘rsatib, shunchalik iltifotlar qildiki, yetimlik G‘am-g‘ycca, darbadarlik azoblari yuragimdan batamom g‘oyib bo‘ldi...».¹⁵ Bobur mirzo Haydar mirzoga ham otalik, ham talabchan ustozlik qildi. Kobulda kechgan uch yillik umri haqida yozarkan, «Tarixi Rashidiy»da Bobur xususida to‘xtalib: «Shunday qilib, men Kobulda ancha vakt Bobur Podshox, xizmatida dorulomonlikda kun kechirdim. U mudom mehribonchilik bilan boshimni silab, gox, iltifot bilan, gox, kat’iy amr bilan meni ilm egallashga undardi. Agar mening ozgina bilim egallaganimni sezsa, u yanada iltifotliroq bo‘lib, hammaga bu xaqda gapirar va meni ruxlantirishlarini talab kilardi...Kiskasi, mening sabok, olish paytimdan tashkari biror laxza ham yonidan jildirmas, darsdan bo‘shasam, meni olib ketishga odam yuborar, shu tahlit menga mudom otalarcha g‘amxurlik kilardi»¹⁶.

¹⁴ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. И. Шарқ, 2010. -Б17

¹⁵ Ўша асар

¹⁶ Ўша асар

Bobur Podshox «Boburnoma»ning ikki o'rnida Muhammad Haydar haqida G'oyat muhim ma'lumot beradi. Jumladan «... Haydar mirzo edi. Otasini o'zbek ulturgandin so'ng kelib, mening mulozamatimda uch-to'rt yil bo'ldi, sungra ijozat tilab, Koshg'arga xon qoshiga bordi... Bu tarixda deydurlarkim, toyib bo'lub, yaxshi tarika paydo qilibtur. Xat va tasvir va o'k, va paykon va zihgir har nimaga iligi chaspondur. Tab'i nazmi ham bordur. Manga arzadoshti kelib edi, inshosi ham yomon emas».¹⁷

Ushbu kiska axborotlarda Bobur Podshox, Muhammad Haydar mirzo haqida juda ko'p ma'lumotlarni bergan. Xdgto uning Sulton Saidxon dargohida ichkilikka berilgani va tavba kdlb ichmay kuygani kayd etilib, maktubiga ko'ra uning bayoni iqtidoriga yaxshi baxo berilgan.

1510 yili Marvda Shox Ismoil Safaviy Shayboniyxonni mahv etgach, Boburning opasi Xonzodabegimni (uning keyingi eri Sayd Xodi jangda halok bo'lib, o'zi asira bo'lib tushgan edi) Qundo'zga yubordi. Bobur bundan mamnun bo'lib, Mirzoxonni Shoh Ismoilga elchi qilib yuboradi. U Bobur minnatdorchiligini izhor etadi va undan Samarkandni olish uchun lashkar yordam suraydi. Shox, Ismoil bu taklifni bajaradi, fakat xutbaga o'n ikki imom nomlarini qo'shish va Boburni shia mazhabiga xos kiyimda bo'lishini shart qilib ko'yadi. Bobur shu yordamchi lashkar va o'z kishilari bilan Buxoro va Samarkandni 1511 yili jang bilan olganida uning yonida Muhammad Haydar mirzo ham bor edi. Bobur Kuli Malik jangida Ubaydulloxxondan yengilib, Xisorga chekinganida, Sulton Saidxon muttasil iltimos qilgani uchun o'n ikki yoshli Haydar mirzoni Andijonga jo'natadi.

«(Bobur) Podshox, mulozamatida Xisorga keldim. Sulton Saidxon bir necha marta Podshohga odam yuborib, menga ijozat berishini so'radi. Nixoyat, Podshoh, ranjib, istar-istamas mening ketishimga ruxsat berdi. Men yoshligimga borib, uning ko'nglini topolmadim, aslida shunday qilishim kolishim kerak edi. Amir Najm kelgach, Podshox urushga jo'nadi, men esa Andijonga ketdim»¹⁸. Muhammad Haydar mirzo Sulton Saidxon dargohida 24 yil bo'ldi. Sulton Saidxon uni Sulton

¹⁷ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобоурнома Т.2002. Б. 175.

¹⁸ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. 2010.- Б.19.

Ahmadxonning uchinchi qizi Muhib Sulton xonimga uylantirib, uni ko'ragonlik xon kuyovi martabasiga ko'tardi. Bu xaqda Haydar mirzo shunday yozadi: «Sulton Ahmadxonning farzandlaridan uchinchisi Muhib Sulton xonimni Sulton Maxmudxon ukasi o'lgandan keyin o'z yoniga olgan edi. Sulton Maxmudxon Axsiga kelib, Shohibekxonning buyrugi bilan shahid bo'lgach, Muhib Sulton xonim Sulton Maxmudxonning qizi Kutluk, xonim yonida koladi.

Toshkent bosib olingach, Kutluk, xonimni Jonibek Sultonga berishadi. Amakim Jonibek Sultonni tor-mor qilib, Farg'onadan kuvib yuborgach, u akasi Sulton Saidxon yoniga keladi. To'rtta opa-singil ichida xon shu singlisini hammadan yaxshi ko'rardi. Muhib Sulton xonim Sulton Saidxon xo'zuriga kelgach, u singlisiga mehr-okibat ko'rsatib, hamisha yumshok, muomalada bo'ldi. Xon meni o'ziga kuyov kilganida shunday kata ziyofat berdiki, buni odamlar o'zok, vakt eslab yurishdi»¹⁹.

Sulton Saidxon Haydar mirzoni sabot bilan saltanat ishlariga tayyorlay bordi. Shu vaktdan boshlab to 939 yil zulxijja (1533 yil iyun) oyigacha, ya'ni xon yorug' olamdan ko'z yumguniga qadar Haydar mirzo o'nga chin dildan xizmat qildi va uning shohona himmatu iltifotlariga sazovor bo'lib yashadi... U Sulton Saidxon qaerga borsa o'nga hamrohlik qildi. «Tarixi Rashidiy»da bu xaqda shunday satrlarni o'kiymiz «U menga turli-tuman ishlarni buyurar va ularning foydasi hakida shunday derdi: «Yigitlarimiz xizmatga qadam qo'ymaguncha ularda qobiliyat paydo bo'lmaydi. Ulug' ishlarda, katta yig'inlarda, obru-e'tiborli kishilar - hoqonlar, sultonlar, vazirlar, amirlar yig'ilgan joylarda kattalar bilan birga bo'lib, ularning xizmatida bo'lishsa, bu ishlarda ko'ngillari va ko'zlari pishib, yirik yig'inlarda hayron kolib o'tirishmaydi. Yoshlar dadil, o'zlariga ishongan bo'lishsa, ularni ko'rgan odamning dilida ularga nisbatan ishonch paydo bo'ladi, ulardagi bu fazilatlar yurt surash ishida kuch-kudratga ega bo'lishlarida asqotadi. Agar bunday xizmatni bilim va kunikmaga ega bo'lmagan odam bajarsa, u boshkalarga zarur topshiriqlarni berolmaydi, ularning ishlaridagi kamchiliklarni ko'rolmaydi, bu

¹⁹ Ўша асар.- Б.19.

kamchiliklarni bartaraf kilish yullarini bilmaydi».²⁰

Yigirma to'rt yoshgacha men juda ko'p xizmatlarni qunt bilan bajardim. Mahkamadagi amirlarning yig'inlarida martabamga muvofik, o'z joyimga o'tirardim. Bordi-yu men u yerda xonga biron-bir xizmat ko'rsatish uchun qulay payt topsam, u meni to'xtatib: «Xalqning ko'ziga xor ko'rinib kolmaslik uchun yig'inlarda mavqeing hurmatini saqlash lozim», derdi. Yoshim yigirma beshga yetganda u meni bu xizmatlardan batamom ozod qildi va: «Men senga qanday topshiriq bergan bo'lsam, sen bekamu kust bajarding. Endi barcha xizmatlarni o'zing topib, o'zing bilib qilishga odatlan»²¹, dedi.

O'ttiz yoshga to'lganimda u menga lashkarni ishonib topshirdi. Lekin yonimga bilimdon, tanikli amirlarni qushib qo'ydi va: «Xech kachon mana shu odamlarning maslahatidan chetga chiqma. Ularga quloqsol, barcha ishlarda bo'ysin», dedi.

O'ttiz yoshimgacha xon xo'zuridagi kengashlarda o'z mulohazalarimni aytishga ijozat yo'k, edi, shuning uchun yig'ilishlarda men baliqdek jim o'tirardim....Shu tahlit ancha vakt o'tdi. Keyin xon: «Endi sening fikringga to'liq, ishonaman», dedi. Shundan so'ng u menga butun harbiy va saltanat ishlarini ham ishonib topshiradigan bo'ldi. Barcha jabhalarda menga cheklanmagan xukuk berdi»²². Shu jihatdan «Tarixi Rashidiy» asarining yoshlar tarbiyasiga, ularni buyuk ishlarga jalb etishga e'tibor berish borasidagi ahamiyati bekiyosdir.

Xullas, Muhammad Haydar mirzo Sulton Saidxonningsaltanatidagi yetakchi davlat arbobi sifatida xizmat qildi. Eng muhim harbiy yurishlar bosh qumondoni ham Haydar mirzo edi. Badaxshon, Kofiriston, Tibet, Ladak, Kashmir yurishlari shular jumlasidandir. Muallif kayd etganidek, Sulton Saidxon xayotligida hamisha birga bo'ldi. Oxirgi paytda Sulton Saidxon Muhammad Haydar mirzoni Tibetga - Ursangdagi ibodatxonani vayron qilib kelishga jo'natdi va o'zi Qoshg'arga kaytayotganida, yulda nafas qisilish kasalligidan vafot etdi. Taxtga chiqqan o'g'li, Abdurashidxon Mirzo Ali Tog'ay kutkulariga ishonib Haydar mirzoning amakisi

²⁰ Мухаммад Хайдар мирзо .Тарихи Рашидий. И. Шарқ. Т. 2010. -Б.20.

²¹ Ўша асар. -Б.20.

Sayd Muhammad mirzo (Sulton Saidxon saltanatining ikkinchi yirik ustuni)ni ta'ziya kuniyok, o'ldirdi, so'ngra uning o'g'illarini va Muhammad Haydar mirzo yaqinlarini qatl ettirdi.

Muhammad Haydar mirzo Abdurashidxondagi bu muloxazasizlikdan xavfsirab, Qoshg'arga kaytmadi va Tibetdan Badaxshon orkali Xindistonga - Humoyun va Komron mirzolar yoniga ketdi. Komron va Humoyun mirzolar dargohida 6-7 yil bo'ldi. 1540 yilda Humoyun Sherxon Sur bilan jangda yengilgach, aka- ukalar noittifoqligidan ranjigan Muhammad Haydar mirzo Humoyunning roziligi bilan o'zi bir marta yurish qilib egallab, tashlab kelgan Kashmirda ikkinchi marotaba yana yurish qildi. Kashmirni zabt etib, u yerda o'n yil podsholik qildi va 1551 yilda maxalliy isyonlardan birini bostirish paytida yarador bo'lib, vafot etdi.

Muhammad Haydar mirzo qabri Kashmirda, Srinagar shahrining podshoh Zaynulobiddin mozori yoki Mazori Salotin (Sultonlar mozori) qabristonidadir. Muhammad Haydar mirzoning xizmatlariga tarixan baho bermokchi bo'lsak, -birinchidan, uning o'n yillik xukmronligida Kashmir sobiq vayronaliklardan tiklanib, iqtisodiy va madaniy jihatdan qaytadan taraqqiy eta boshladi; ikkinchidan, u bilan birga kelgan siyosiy, ilmiy, madaniy va diniy arboblarning Kashmirda o'sha davr sivilizatsiyasini keltirdilar, deyish mumkin. Bu davrda Kashmir Buyuk Ipak yo'liga ulandi. Buning sababi, yangi hukmdor tashabbusi bilan shol ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bo'ldi. Musiqa san'ati rivoj topdi; uchinchidan, Kashmir me'morchiligining yangi usuli va 6OF-pog' yaratish san'ati ibtidosiga asos qo'yildi. BOG'I Safo, BOG'I Baxororodan sung boburiylar bu yerda Shalimar BOG'I, BOG'I Nishot kabi o'nlab bog'lar barpo etdilar.

I.2. Asarning yaratilish tarixi va uning ahamiyati

Muhammad Haydar mirzo zamonasining o'qimishli va keng ma'lumotli kishilaridan edi. Boburning guvohlik berishicha, u durustgina shoir, hattot, rassom, shuningdek nayza va kamon yasovchi usta bo'lgan. "Muhammad Haydarning bizning zamonamizgacha ikki yirik asari yetib kelgan. Bulardan biri "Jahonnoma"

²² Ўша асар. –Б.19.

deb atalib, afsona tarzida yozilgan asar. Uning yagona qo‘lyozmasi Germaniyaning Berlin shahri kutubxonalaridan birida saqlanmoqda.”²³ Olimning ikkinchi yirik va mashhur asari “Tarixi Rashidiy”dir. Kitob ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qismida Mo‘g‘uliston xalqlarining tarixi Tug‘luq Temur (1348-1363)dan to Abdurashidxonning taxtga o‘tirguni (1533-y) gacha davrni o‘z ichiga oladi.

Asarning birinchi qismi turli naql-rivoyatlar, shuningdek Yoqut Hamaviyning “Mo‘jam ul-buldon”, Juvayniyning “Tarixi Jahonkushoy”, Rashiduddin “Jome’ ut-tavorix”, Jamol Qarshiyning “Mulhaqot us-suroh”, Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Mirzo Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus” va nihoyat, Abdurazzoq Samarqandiyning “Matla’ us-sa’dain” kitoblaridagi ma’lumotlar asosida yozilgan, lekin unda ham Markaziy Osiyoning XV-XVI asrdagi ijtimoiy siyosiy hayotiga oid yangi, asl nusxadagi ma’lumotlar ko‘p. Qolaversa, birinchi kitob Qoshg‘ar, Qozog‘iston, shuningdek Movaronnahr va Turkistonning XV-XVI asr boshlaridagi siyosiy tarixini mukammal qamrab olishi bilan qimmatlidir.

Ikkinchi kitob birinchisidan keskin farqli o‘laroq, esdalik, xotiralar tarzida yozilgan bo‘lib, Qoshg‘ar, Movaronnahr, Afg‘oniston hamda Shimoliy Hindistonning XVI asr boshlaridagi tarixini o‘rganishda asosiy va qimmatli manbalardan hisoblanadi.

«Tarixi jaxonkushoy», «Majma’ at-tavorix» (Tarixlar to‘plami), «Tarixi go‘zida» (Saralangan tarix), «Tarixi manzuma» (She’riy tarix), «Zafarnoma» va yana bir qancha mashhur tarixiy kitoblarning hammasi Irok; Xuroson, Movarounnaxr olimlarining asarlari bo‘lib, bularda faqat o‘sha yerlardagi podshoxlarning axvollari yozilgan, xolos, ulardan boshqa voqealar tilga olinmagan. Mo‘g‘ul xonlarining zikri va nasl-nasablari, xol-ahvollarini bayon qiladigan biror kitob yozilmagan. Fakat «Tarixi Rashidiy» kitobigina Mirzo Muhammad Haydar ko‘ragon ibni Muhammad Husayn ko‘ragon (Allox taolo ularning gurlarini nurafshon qilsin)ning asari bo‘lib, uni xijriy 951 yili Abdurashidxon ibni Sulton Saidxon nomiga bag‘ishlab yozgan. Unda Tug‘luk, Temurxon zikridan to Abdurashidxon va Humoyun podshoh qahidagi voqealargacha bo‘lgan axvollar

²³ Абдумажид Мадраимов. Говхар Фузалова. Манбашунослик. Т. 2008. - Б. 214

tartibi bilan yozilgan va tutgan o'zni e'tibori bilan har kaysi xon va podshoxning axvoli tafsiloti bayon kilingan. Shuningdek, Mo'g'uliston zaminining kengligi, obxavosi va Qoshg'ar, Yorkand, Xutan viloyatlaridagi shahar, imorat, qabriston, sahro, bog'lar, daryolar, tog'u chullari hamda bu joylardagi xalqdarning urf-odatlarini, rasmi koidalari imkon boricha tekshirilib, ko'zatilib va aniklanib batafsil bayon kilingan. Shu narsa aniqki, bu viloyatlarning ta'rifi va mo'g'ul xonlarining zikri boshka birorta kitobda tilga olingan emas. Garchi ba'zi tarixiy asarlarda tasodifiy uncha- muncha aytilgan bo'lsa-da, bular juda qisqa ma'lumotlardir. «Tarixi Rashidiy»da bo'lsa, maxsus mo'g'ul xonlari xakidagi hikoyalar va Mo'g'ulistondagi voqealar shunchalik mufassal o'z ifodasini topganki, undan ortig'ini tasavvur qilish mumkin bo'lmasa kerak». «chig'atoy², o'zbek³, qozoq hamda uyratlardan tashkil topgan oltoy xalklariga mansub bo'lgan (*Chidatoylar* — deyilganda muallif bu o'rinda temuriylarni tushnadi, o'zbeklar deyilganda Shayboniy boshliq qavm nazarda tutiladi)²⁴

Bundan tashkari, asarda qirg'iz biylari xukmronligi ham tilga olinadi. Mashhur tarixiy fundamental asarlarda bunchalik ko'p sulolalik manzara siyrak ko'zatiladi. Amir Temur boshliq sulola tarixi Sohibqironning mo'g'ullarga besh marotaba yurishi bilan boshlanganidek, kiyingi temuriylarning Mo'g'ulistonga yurish qilib Otboshi va Yorkandni egallaganlarigacha kechgan voqealar tizimi kitobxon diqqat e'tiboriga takdim etilgan. Muallif bu sulolaning ikki vakilini aloxida ajratib, ular faoliyatini kengrok yoritadi. Bular Amir Temur va Abusaid mirzodirlar. Darxakikdt, Alisher Navoiyday daxo ham Abusaid mirzoni jahongir deya, uning hukmronlik kabzasiga Xito (Sharqiy Turkiston)dan boshlab Kavkaz Qorabog'igacha xududlar kirganini qayd etgani bejiz emasdi.²⁵ Muhammad Haydar mirzo so'nggi ulug' hukmdor Sulton Husayn mirzo faoliyatini yoritishda uning bunyodkor va ma'rifatparvar shaxsini o'sha zamondagi Xirot madaniy muxiti manzarasini mukammal kalamga olib namoyish eta olgan.

O'zbeklar xukmronligini esa Abulxayrxondan boshlab, undan keyingi yirik

²⁴ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. 2010 -. Б. 6

²⁵ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 13 жилд. Мажлис ун-нафоис. Т. Фан. 1997

hukmdor Shohibekxon Shayboniy faoliyatida keng yoritadi. Muallif o‘zi mansub oilalar ham mo‘g‘ullar, ham temuriylarning ayovsiz dushmani, zuravon Shohibekxonning o‘lkan zafarlariniyu fojiali o‘limini tarix uchun ibratnoma tarzida ta’sirchan qilib talqin eta olgan. Undan keyingi Suyunjikxon va Ubaydulloxon harbiy harakatlarini ham juda xaqqoniy ifodalab bergan.

Shuningdek Tarixi Rashidiy”da Shayboniyxon va Ismoil Safaviy o‘rtasidagi munosabatlar va bo‘lib, o‘tgan jang mukammal yoritilgan. Boshqa manbalarda esa bu qisqaroq bayon etib ketilgan. Xususan Hofiz Tanish Al –Buxoriyning “Abdullanoma” (“Sharfnomayi shohiy“) asarida bu haqda shunday ma’lumotlar berilgan.”Shayboniyxon har doim shoh Ismoilga elchi orqali shu mazmunda xabar yuborar edi: “Yo ota-bobolaringning yo‘li bo‘lgan.ahli sunnat va jamoat shevasini qabul qil,yoki urushga shaylanib,urush va jang qilib gumrohlik yo‘lini ilgari sur” Har ikki tomon bir-biriga xat va elchi yuborishnibir necha bor takrorlagach,Shoh Ismoil urishmoq maqsadida kufrul zulol(ya’ni kofir va yo‘ldan adashgan)sipohini,it hislatli va bad andishali lashkarini to‘plab, Shayboniyxon tomonga yurdi va Marv viloyatida ul hazratga yetishdi. Taqdir qalami ul jahongir podshohning (Shayboniyxonning)peshona lavhasiga shahidlik raqamini yozdi.Shayboniyxonni ko‘p kishilari bilan shahidlik darajasiga yetkazdi”²⁶

Bu voqealar “Tarixi Rashidiy”da to‘laroq va mukammalroq bayon qilingan. “ Shohibekxon tasarrufidagi yerlarning chegaralari Iroq zaminiga borib tutashganda, o‘zbeklar Xurosonning o‘sha chegara kentlariga xujumlar uyushtirishdi.Shoh Ismoil qimmatbaxo covg‘a-salomlar va maktub bilan Shohibekxonga kishi yuborib, xatda shunday so‘zlarni bitgan: «Ko‘p zamonlardan beri ahdnomalarga amal qilinib, ikkala tarafning kungliga kelishmovchilik chang-g‘uborlari kunmagan edi, shu sababdan oramizda gina-adovat izlari yuk, edi. Agar u tarafdin otalik qoidasi namoyon bo‘lsa, bu tarafdin farzandlik munosabatlari mustahkamlangusidir.

Nazm:

*Shirin hosil berar - do‘stlik daraxtin o‘tqaz,ey inson,
Muxoliflik niholin yulki, bergay g‘am-alam, armon».*

²⁶ Хофиз Таниш Ал-Бухорий .Абдуллонома. Т. 1999. -Б. 58.

Shoh Ismoil ana shunday sulh, maktubini yozib yubordi. Uning elchisi Shohibekxon dargohiga yetib kelib, elchilik rasm-rusumlarini bajarganidan keyin, covg‘a-salomlarini Shohibekxon nazaridan o‘tkazdi va Shoh, Ismoilning maktubini uzatdi. Shohibekxon maktub mazmunidan xabardor bo‘ldi. U murosaga chorlovchi maktubga bunday nomuvofik, javobni yozib yubordi: «Har bir kishi onasining emas, otasining hunari bilan mashg‘ul bo‘lgani durust. Negaki Uzun Hasan qizini (Sulton Ya‘kub xamshirasi) otangga bergan kundan boshlab u zamon malikalari qatoridan chiqqan. Bizning zamonimizda bir ona xuddi mendek sultondan bo‘lgan sultonni tug‘masa edi, sen ona tomondan saltanat da’vosini qiliishing mumkin edi. Axir «O‘G‘IL otaning hunarini qilsin, qiz - onaning» degan maqol bor-ku».

Nazm:

Mamlakatu davlat ishin shohlar bilar, ey Hofiz,

Faryod etma, bir gushada tek tur, sen bir gadosan...»

Shunga o‘xshash so‘zlar bilan maktubini tugatib, elchiga topshirdi. Bir tayok., bir janda, bir qovoq, kachkul xadya qilib yubordi: «Agar sen otang hunarini unutgan bo‘lsang, bu xadyalar orkali men uni yodingga solyapman».

Nazm: (Xrfiz Sheroziydan):

Nasihatat tinglagil, jono, tutarlar jonu dildan do‘st,

Aqlli, baxtli yoshlar hurmat aylab keksa dononi.

Agar oyog‘ingni saltanat taxtiga qo‘yishni istasang, unda boshingni garovga qo‘y.

Nazm:

Yarqirots qilichni o‘pgan bahodir,

Saltanat kelinin quchishga qodir».

Shoxibek Irokdan kelgan elchini jo‘natib, o‘zi hazora ustiga qo‘shin tortdi.

Elchi Shox Ismoil qoshiga kelib, maktub va xadyalarni bergach, Shox, Ismoil maktub mazmuni bilan tanishdi va mana bunday mazmunda javob xati yezdi: «Agar har bir o‘g‘ilga otaning hunari bilan mashg‘ul bo‘lish lozim bo‘lganida edi, unda hamma odamlarga, ular Odam alayhissalomning avlodlari bo‘lganligi bois payg‘ambar bo‘lish lozim bo‘lardi. Agar meros sifatida farzandga o‘tishi zarur bo‘lganida edi, unda podsholik Peshdodiylardan Kayoniylarga o‘tmagan bo‘lardi.

Podsholikni Chingiz qanday yul bilan qo‘lga kiritganu sen qanday qo‘lga kiritgansan?

Nazm:

O‘lgan otang bilan maqtanishni qo‘y,

Itday suyak bilan quvonishni qo‘y».

Shohibekxonning tuhfasiga javoban unga charx va duk jo‘natib, maktubga shunday so‘zlarni qo‘shdi: «Sen menga nomangda nimani yozgan bo‘lsang, men xam senga shuni aytaman:

Yarqiroq qilichni o‘pgan bahodir,

Saltanat kelinin quchishga qodir.

Endi men sen bilan kurash kamarini belimga bog‘lab, hech bir xayallamay oyog‘imni jang uzangisiga qo‘yaman. Agar sen menga qarshi chiqsang, ikkimizning bir-birimizga qilgan da’volarimiz jang maydonida hal bo‘ladi. Mabodo maydonga chikmasang, unda men yuborgan charxni yigirib o‘tiraver». Tag‘in mana bu baytni qo‘shib kuydi:

Qaytar dunyoda qolar baloga

Tashlansa har kim Oli Aboga.⁴

Bu maktub kelgan paytda Shohibekxon butun lashkarini tarqatib yuborgan, o‘zi endigina Marvga kelgan edi.

U har tarafga shoshilinch ravishda chaqqon odamlarni jo‘natib, lashkar YIG‘ISHNI buyurdi. Biroq lashkar yig‘ilib ulgurmay, Shox Ismoil yetib keldi-da, Marv yaqinida to‘xtadi.

Uch kun davomida ikkala taraf o‘rtasida tuqnashuvlar bo‘lib turdi. Bu orada Shohibekxonning jangchilari yig‘ilib kela boshlashdi. Shoh, Ismoil qo‘ngan manzilidan boshqa joyga kuchdi. O‘zbeklarning soqchilari buni ko‘rib, dushman kelganidan pushaymon bo‘lib qaytib ketishyapti, deb o‘yladi. Bu vokeani Shohibekxonga xabar qilishdi. Ular shahardan peshin namozi paytida 916 (1510 yilning dekabri) yilning ramazon oyi arafasida chiqishdi. Shohibekxonning lashkarlaridan yigirma ming kishi to‘plangan edi. Amir Qambar, amir Roy singari ayrim maslahatchilar shunday kengash berishdi: «Agar biz bugun jangni qoldirsak,

bizga Ubaydullox. sulton bi- lan Temur sultonlar kelib qo‘shilishgan bo‘lardi, ularning har birida yigirma mingtadan lashkar bor, bizdan bor-yo‘g‘i bir farsax masofa narida. Dushmanning ahvoli ham ma’lum bo‘lib qolardi: ular chindan xam qaytib ketishdimi yoki bizni chalg‘itmokchi bo‘lyaptimi? Agar dushman rostdan ham qochgan bo‘lsa, uni xonning o‘zi quvib yurishiga hojat yuq., ularni Ubaydulloh, sulton, Temur sulton va boshka amirlar quvishsa ham bo‘laveradi. Xon hazratlari shoshilmay, xotirjam, dam ola-ola to‘g‘ri Iroqqacha borsalar bo‘ladi. Agar u bu yerdan qaytib ketayotgan bo‘lsa, unda xalq, uni quvib haydaydi, uning Iroqda qolishga kuch-quvvati bo‘lmasa ham kerak».

Shunda Shohibekxon: «U bilan bo‘ladigan urush - iymon uchun bo‘ladigan katta jangdir. Shu bilan birga, bu jang katta o‘lja ham olib keladi. Bu dunyo uchun ham, oxirat uchun ham foydali va manfaatli bo‘lgan ishga boshqa sultonlarni aralashtirishga hojat yo‘k., Mardona bo‘lmok. lozim», deb jang qilishga otlandi.

O‘nkir-cho‘nkir joylardan o‘tib, tekis yerga yetishganda, qarashsa, dushman ketmagan ekan. Ular dushman lashkari taxminan kirk, ming kishidan iborat bo‘lsa kerak, deb taxmin qilishdi. O‘zbek jangchilari hali saf tortib ulgurmaslaridan turkman lashkari ular ustiga tashlandi. Shohibekxonning (lashkari o‘zlaridan anchagina ko‘p dushman lashkarini ko‘rib, oyoklari qaltirab, qurqqanlaridan qochishga tushishdi. Ammo lashkar sardorlari oxirigacha, Shohibekxon va barcha lashkarboshilar o‘ldirilgunlaricha mardona turib kurashdilar. Hali tarixda hech qachon qo‘shindagi barcha lashkarboshilar o‘ldirilgan bunday jang bo‘lmagan edi».²⁷

Ushbu jang o‘zgacha yakunlanishi ham mumkin edi. Negaki tarixchi Muhammadiyor ibn Arab Qatag‘anning «Musaxxir al-bilod»²⁸ (Mamlakatlarning egallanishi) nomli asarida aytilishicha, Shoh. Ismoil birinchi tuqnashuvdan keyin Shayboniylarga sulh, taklif qilib maktub yuborgan. U «xatni uqib kurdi-yu, ammo undagi gaplarga iltifot nazari bilan qaramadi... shohning xat keltirgan xabarchisini qamab qo‘yishni buyurdi» Shu tariqa Shayboniylar ikkinchi marta tinchlik sulhini

²⁷ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. ИШарк..2010.-Б. 347-350.

²⁸ Мухаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод(мамлакатларнинг эгалланиши) .Т.2009. –Б. 119.

rad etib, katta xato qildi va o'z halokatiga yo'l ochib berdi.

Shayboniyning O'rta Osiyo shaharlariga qilgan qonli yurishlari ana shunday o'z nihoyasiga yetdi. Tarix o'z hukmini chiqardi. Kitobxon ham ushbu vokeadan o'ziga kerakli xulosalarni chiqarib oladi. Bular kitobxon idroki darajasiga ko'ra bir nechta bo'lishi mumkin:

Birinchisi: zolimning zavoli anikdir.

Ikkinchisi: mag'rurlik, o'zgani mensimaslikning okibati tuban xurlik va halokatdir. Maktubda Shoh Ismoil sulx, istamoqda, jang emas. Shoh Ismoilning odob doirasida bitilgan maktubining mazmunini bilgan kitobxon, Shohibekxonning qo'pol javobidan ijrg'anadi. Shoh Ismoilning ikkinchi maktubi garchi dushmanga dushmanlik so'zlari bilan javob berilgan bo'lsa-da, kitobxon uning mantikiy dalillariga tan beradi.

Uchinchidan, birovning ustidan kulish, o'zgani tahqirlash Alloxga yoqmaydi. O'sha holatga tahqirlanuvchi emas, tahqirlovchining o'zi tushadi.

To'rtinchidan, salomga alik haqidagi hadis poymol qilingan edi. Biz bunday badiiyat va ta'sirchanlikka boy vokea va lavxalarni «Tarixi Rashidiy»da kup marotaba uchratamiz. Badiiy asarga xos bunday ifoda nazokati, vokeadan lunda ahlokiy-ta'limiy xulosalar chikarish boshqa tarixiy asarlarda siyrak yoki tasodifan duch kelinadi, xolos.

Mo'g'ul xonlari tarixiga kelsak, asarning asosiy qismi ularga ajratilgan. Amir Temurga zamondosh mo'g'ul xoni Tug'luq Temurxondan (1330-1363) boshlab XVasrning yetmishinchi yillarigacha hukmronlik qilgan ushbu sulola shajaralari o'ta mufassalligi va xaqqoniyligi bilan «Tarixi Rashidiy» asarida o'z talqinini topgan.

Muhammad Haydar mirzo mo'g'ul xonlari tarixini uch sababga ko'ra Tug'luk Temurxondan boshlaydi. Uning shajarasi: Tug'luk Temurxon Esan Buraxon o'g'li, u Duvojixon o'g'li, u Barokxon o'g'li, u Kora Iso'n O'G'LI, u Motukan o'g'li, u Chig'atoy o'g'li, u Chingizxon o'g'li, ...

Uch sabab esa:

Birinchisi - Tug'luk Temurxongacha bo'lgan tarixiy vokealar tarixga oid

asarlarda yozilganu, uning davri yoritilmagan, o'ndan keyingi xonlar tarixi ham yozilmagan.

Ikkinchisi - Tug'luk Temurxonga nasib etgan ulug'lik va saltanat hech bir keyingi xonga nasib etmagan.

Uchinchisi – Tug'luk Temurxon birinchi bo'lib islomga mo'sharraf bo'lgandir. Tug'luk Temurxondan keyingi mo'g'ul xonlari: Ilyos Hojaxon, amir Qamariddin, Xizrxon, Muhammadxon, SherMuhammadxon, Uvaysxon, Esan Buraxon, Yunusxon, Sulton Maxmudxon, Sulton Ahmadxon, Do'st Muhammadxon, Sulton Saidxon va Abdurashidxondir. Mo'g'ul xonlari tarixida Yunusxondan keyin Sulton Maxmudxon (katta xon) Toshkandda, Sulton Ahmadxon (kichik xon) Mo'g'ulistonda hukmronlik qildilar.

Temuriylar va mo'g'ul xonlari takdirlari tutashgan tarixiy nuqtalardan biri ma'rifatli Yunusxon bilan alokador. Yunusxon o'n ikki yil Sharafiddin Ali Yazdiy xonadonida tarbiyalanadi. Yunusxonning tarbiyasini olgan farzandlari Sulton Maxmudxon va Sulton Ahmadxon bir-biriga qayishishdi, katta xon, kichik xon bo'lib ikki yurtni idora kilishdi. Xolbuki, kechagina Mansurxon Mo'g'ulistonga xujum qilib, ukalari Sulton Saidxon va Sulton Halil sultonni Movarounnaxrga o'zbeklar idora qilayotgan Andijonga quvib yuborgan edi. Natijada Sulton Halil sulton Axsi daryosiga chuktirilgan, Sulton Saidxon bir amallab Qobulga qochib qutulgan edi. Insofli Saidxon Mo'g'ulistonni egallagach, akasi Mansurxon bilan uchrashib, uni sharmanda qilmadi, balki o'zr so'rab uyaltirdi, xolos. Tarixchi ko'ragon shoh, va xonlar shaxsidagi ma'rifatga munosabat masalasiga jiddiy e'tibor beradi va ma'rifatni najotkor kuch sifatida talqin etadi.

Muallif, islomiy ma'rifatning ahamiyati, xon va shoxlarning insof va adolatiga ko'p narsa 6OG'LIKIGINI har bir hukmdor shaxs taxlilida isbotlab beradi. Xususan, hukmdor uchun muslimi komilga xos afvkorlik-kechirimlilik Yunusxon va Sulton Saidxon siymolarini nurlantirib turadi.

Kozok, xonlaridan Garoyxon, Jonibekxon, Burundukxon, Qosimxon va Toxirxonlar xaqidagi muhim ma'lumotlar «Tarixi Rashidiy» orkali fanga ma'lumdir. Ayniksa, kozok, ulusining eng gullagan payti Qosimxon davri va eng

tushkun **payti** *Toxirxon va Buydoshxonlar* zamoni ham yaxshi yoritilgan. Kosimxonning ochikko'ngilliligi, oqilligi, samimiyati, mexmondo'stligi kitobxonni rom etadi. Bu kitob qozoq xalki tarixi xakidagi kimmatli yodgorlik ham bo'lib xisoblanadi.

Ozərbayjonlik safaviylar sulolasining uch vakili Shoh Ismoil Safaviy (adabiy taxallusi - Xatoiy), uning o'g'illari Shoh, Taxmosp va Som mirzo haqida «Tarix Rashidiy» muhim ma'lumotlarni keltiradi. Shox. Ismoil o'z diplomatik zakosi bilangina emas, harbiy kuchi bilan ham Shohibekxon - Shayboniyxonni mardona tor-mor qiladiki, bo'nga kitobxon qoyil qoladi. Ammo diniy sunniylik va shialik ayirmachiliklari buyuk davlatchiliklar va insofu adolat ko'shandasi ekanligiga guvox, bo'lgan kitobxon Illox ISMOIL Safaviy shafkatsizligidan seskanib ketadi, diniy bag'rikenglik yo'qligidan ukinadi.

Asarda boburiylar sulolasi ham Bobur Podshox, Humoyun mirzo va Komron mirzolar faoliyatlari orqali asarda muhim o'rin tutadi. Kitob muallifi Boburning otalarcha mehrshafkatidan baxramand bo'ladi, 7-8 yil Komron mirzo va Humoyun mirzo saroylarida ulug' obru-e'tiborli davlat arbobi sifatida yashaydi. Bobur zamonidagi yutuqlar noittifok vorislari davriga kelib yo'qqa chikadi, o'lkan lashkarga ega Humoyun Sherxon Sur bilan tuknashib, to'zuk jang bo'lmay Humoyunshox, lashkari tumtaraqay bo'lib ketadi. Muhammad Haydar bu jangdan afsuslanib chiqar ekan, Humoyun mirzoga kelgusida Bobur Podshox, zafarlari nasib etishini orzu kiladi. Bu oliyjanob orzu ham amalga oshadi. Ko'p yillik sarson-sargardonlikdan so'ng Humoyun mirzo ShohTaxmospdan yordam olib, kaytib kelib, ukalarini yengib, yana Xindistonda markazlashgan davlat barpo etishga muyassar bo'ladi.«Tarixi Rashidiy »ning boshka tarixiy asarlardan farq etuvchi xususiyati shundaki, unda hukmdorlar tarixi talqini bilan o'zviy ravishda turli davrlardagi diniy-ruxoniy peshvolik vakillari pirmurshidlarining ham o'ziga xos sulolalari faoliyati o'z aksini topgandir. Chingiz tomonidan Korakurumga kuchirilgan Mavlono Shujo'iddin Mahmuddan boshlab, Tug'luk Temurxonni islomga keltirgan Mavlono Arshadiddin, uning avlodidan Xoja Tojiddin, Xoja Muhammad Yusufargacha bu tarixda ma'lumotlar bor.Ularning eng mashxurlari

Xoja Ubaydullox Axror va Xoja Hypo bo'lib xisoblanadilar. Xoja Ubaydulloxning sodik; muridi - Xoja Hypo nafakat diniy-ruxiy jabxaning buyuk arbobi, ayni paytda o'z zamonining mislsiz nozik, tabibi ham bo'lib xisoblanadi. Chunki u Shark, mamlakatlarining ilm-fan markazlarida bo'lib, tibbiyot sohasining eng mu'tabar ustozlaridan sabok, olgan va birga xizmat ham qilgan. Muhammad Haydar mirzo u kishining karomatu tabobati haqida juda kutarinki ruhda fikr yuritadi.«Tarixi Rashidiy» muallifi o'z kitobida ko'pgina diniy arboblari va ularning asarlariga o'rin ajratadi. Ularning faoliyatini el-yurt xaloskorligini ta'minlashda, ma'naviy-ma'rifiy jabxada shoxu gadoga teng ta'sir o'tkazishda ko'zatadi. O'z e'tikodi manbai va shaxsiy yutuklarini shu piri murshidlar faoliyatlari sharofatidan ko'radi. Biz biror tarixiy asarda diniy ustozlarga bu darajada keng o'rin ajratilganini bilmaymiz.

Voqea-xodisalar talqinining izchilligi, muallifning og'zaki ishonarsiz ma'lumotlarni asarga kiritmasligi, tarixiy arboblari shaxsiyatiga xaqqoniy oqilona munosabat, hatto diniy nuqtainazardan o'zi la'natlab turgan shaxs va uning so'zlari, maktublari mazmuni xaqqoniyatiga erishish, talkinda fikr tiniqligi, balandparvoz murakkab jummalardan qochish, samimiylik tarixchi va adib Muhammad Haydar mirzoning uslubini belgilaydi.

Mirzo Haydar O'rta Osiyo tarixnavisligining an'alariga sodiq qolgan holda tarixchi sifatida bu sohaga fors tilida memuar janrini singdirish kabi Boburona yangilikni kiritdi. Uning ikkinchi ixtirosi: bir tarixiy asarni boshdan oxirigacha atayin ikki marotaba bir-birini to'ldirib yaratish tajribasini sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazdi.«Tarixi Rashidiy»da an'anaviylikni bir necha yunalishda ko'zdamiz: birinchidan, boshqa tarixiy asarlardan o'zlashtirib yoki umumlashtirib kayta hikoya qilish yuliga kirmasdan asarga undan ortiq boblarni «Zafarnoma» va «Tarixi jahonkushoy»dan iqtibos tarzida kiritadiki, bu muallifning ustoz tarixchilar oldidagi sadokatli ta'zimidir; ikkinchidan, «Zafarnoma» va «Boburnoma»larda uchraganidek asar matniga voqea-xodislarga alokador she'riy parchalar kiritish. Shunisi borki, Sharayafiddin Ali Yazdiy she'riy parchalari o'ziniki bo'lsa, «Tarixi Rashidiy»dagi she'riy parchalar kisman muallifniki,ko'prok, boshqa mashhur

manbalardan keltirilgandir. Ushbu she'riy parchalar matnga shunchaki badiiy bezak emas, balki tarixiy vokea yoki hayotiy xodisalarning falsafiy, ahlokiy-ta'limiy mohiyatini teran ifodalovchi mutafakkir shoir mushoxadalari izxoridir. Chunonchi, Mansurxon saltanatining ustuni amir Jabborberdining nechog'lik buyuk tadbirli harbiy va davlat arbobi ekanligi ustida so'z borar ekan, ana shu fikr tasdig'i va ta'kidi tarzida shunday bayt keltiriladi:

Bitta o'tkir qilich yuz bosh kessa gar,

*Bitta o'tkir fikr - lashkarni yengar.*²⁹

Uchinchidan, vokea-xodisalar jarayoni yoki yakunini «Kur'on»i karimning biror oyati, Muhammad (s.a.v)ning hadisi shariflari yoki biror aziz zotning so'zlari bilan taqqoslash, tasdiklash xolatlari ham an'naviy, ayni paytda ixtiroga asoslangandir.

Bobur mirzoning siyosiy sharoitni o'rganish uchun Sux va Xushyorda bir yil azob-mashakatda kechirgan kunlari «Tarixi Rashidiy»da bir xadis dalolati bilan shunday berilgan:

«Podshox, Farg'ona janubidagi tog'larga ketdi va ko'plab qiyinchiliklar, mashaqqatlarni boshdan kechirdi. Podshoxning onasi ham hamrox, edi. Podshox; mulozimlarining ko'pchiligi axli ayollari bilan kuchmoqda edi. Mo'minlarning imomi, yaxshilarning yaxshisi, musulmonlarning amiri Xazrat Ali (Allox; uning yuzini iymon nuri bilan yoritdin) bunday degan ekan: «Xazrat Paygambarimizning so'zlariga ko'ra «Safar do'zaxning bir parchasidir». Makkor falakning zulmkorligiga ko'ra har bir aziz va gavhar kabi pok kishilar uchun tayyorlagan jafakorligi va dushmanligi, xorlikka solishlari qancha bo'lsa, ularning hammasi ana shu safarda Bobur Podshoxning va uning safdoshlari boshlariga yog'ildi».³⁰

Endi asarning o'ziga xosligi, boshka tarixiy asarlardan tubdan farkiga kelsak: tarixiy shaxslar tarjimai xolini ixcham jumlalarda mukammal berish; shaxsiy kiyofasini ahlokiy-ma'naviy nuqtai nazardan tulatukis yaratishdir. Bizningcha, bu

²⁹ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. ИШарқ..2010. -Б .12.

³⁰ Ўша асар.-Б.13.

xususiyatni muallif «Boburnoma»dan o'rgangan va mufassallikda ba'zan undan ham oshib tushgan desak, mubolaga bo'lmas. Ikkinchi o'ziga xosligi, «Tarixi Rashidiy»da o'z shaxsi, tarjimai xoli bilan bog'liq, vokea-xodisalarning ham kam bo'lsa-da, berilishidir. Guyo u bu ishi bilan o'zining ham bir tarixiy shaxs bo'lib qolishiga umid qilgan (Sulton Saidxonning ko'p yillik vaziri, Kashmirda o'n yil podsholik qilgan kishi, darxaqiqat, tarixiy siymo darajasiga yetgan edi). Bu yangilik aftidan yana «Boburnoma» ta'siri tufayli bo'lsa kerak. Chunki barcha tarixiy asarlardan farq etuvchi ushbu xolat «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy»ning ma'lum ma'noda adabiy esdalik xususiyati bilan ham izoxlanadi

«Boburnoma» bilan «Tarixi Rashidiy»ning mushtarak va farqli tomonlariga tuxtalsak.

Boburning qizi Gulbadanbegimning fors tilida yozilgan «Humoyunnoma» asarini biz ma'lum ma'noda «Boburnoma»ning mantiqiy davomi deya olamiz. «Boburnoma» matnida 18 yillik vokealar bayoni yuqligi va shu yillarning eng muhim (Boburning 1511 yilda kelib Buxoro va Samarkandni olishi va yengilib Kobulga kaytishi) vokealari juda izchillik bilan «Tarixi Rashidiy»da berilgani xamda XV-XVI asrlardagi Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi tarixiy vokea-xodisalarning, adabiy- madaniy, tarixiy siymolar xayoti va faoliyatlarini yoritishdagi mushtarakligi uchun ham lutfan «Tarixi Rashidiy»ni forsiy tiladagi ikkinchi «Boburnoma» deyish mumkin. «Tarixi Rashidiy»ning axamiyati ustida to'xtalganimizda bu qomusiy asarning «Boburnoma»da yozilishi lozim bo'lgan, ammo yozilmagan voqealarini aniqlash, to'ldirishda Gulbadanbegimning «Humoyunnoma», Xondamirning «Xabib us-siyar» («Do'stlar tarjimai holi») asarlaridan ko'prok, ma'lumotlar beruvchi noyob manba ekanligini inobatga OLMORIMIZ darkor. «Tarixi Rashidiy» asari nomiga ko'ra Sulton Abdurashidxon ibni Sulton Saidxonga atalib, uning tarixi ham yozilgandir. Aslida esa, muallifning ushbu tarixni yaratishdan ko'zatgan bosh maksadi: xonlari nomlarini tarix sahifalarida abadiylashtirishdir. Ana shu bosh maqsad o'zagi esa, Sulton Saidxon saltanati tarixini mufassal yoritishdan iborat. Muhammad Haydar mirzoning orzubop siymosi Sulton Saidxon edi. Sulton Saidxonning tarix sahnasida mo'g'ul xoni Sulton

Saidxon bo‘lib tiklanishida Zaxiriddin Muhammad Boburning hal qiluvchi xizmati bor. Tarixdan ma’lumki, Mansurxon Mo‘g‘ulistondagi ukalari Sulton Saidxon va Sulton Xalil sulton ustiga lashkar tortadi. Ukalari jangda yengilib, Andijon tomon bosh olib ketishadi. Saidxon kochib Kobulga, Bobur xuzuriga boradi.

«Boburnoma»da Sulton Saidxonning adoi tamom bo‘lib, Kobulga borgani va Bobur tomonidan uning yaxshi qabul kilingani xamda biror yildan sung Andijonga jo‘natilgani xususida «Boburnoma»da kuyidagicha yozilgan: «Sulton Saidxon Qoshg‘ap xoni besh-olti oyog‘-yalang bilan keldi. Tug‘ishgan ukalarimdek ko‘rib, Lamg‘on tumanlaridan Mandirovar tumanini berdim. Shoh Ismoil Shayboniixonni Marvda yenggan mahali, Qunduzga o‘tganimda, Andijon viloyati men tomonga boqib, ba’zi qo‘rg‘onbegilarni quvib, ba’zi yerlarini berkitib, menga kishi yubordilar. Men Sulton Saidxonga barcha navkarlarimni topshirib, kumak qo‘shib, tug‘ilib o‘sgan yerim - Andijon viloyatini unga bag‘ishlab, xon qilib yubordim».³¹

Bobur Podshoxning ushbu kaydlari jiyani Sulton Saidxonning kelajakdagi hukmdorlik istikboli - Andijon va Mo‘g‘ulistonda yigirma turt yil xon bo‘lishini ta’minladi. Shuning natijasidirki, Mo‘g‘ulistonda Saidiya davlati deb nomlangan davlat paydo bo‘ldi. «Boburnoma»dan keltirilgan iktibosga axamiyat bersak:

- a) Bobur o‘zining barcha jang-jadallarda chinikkan navkarlarini Sulton Saidxonga topshirdi, kumak ham qo‘shib berdi;
- b) Bobur zodu budi Andijonga, ya’ni o‘zi tug‘ilib o‘sgan jonajon yurtiga Sulton Saidxonni xon qilib yubordi.

Muhammad Haydar ko‘ragon Kashmir podshosi taxtiga o‘ltirib, «Tarixi Rashidiy» asarida ushbu tarixiy voqealarni yozar ekan, hukmdor sifatida shunga to‘lik, amin bo‘lganki, Sulton Saidxonni avval Andijonda ikki yil, sungra Mo‘g‘ulistonda yigirma ikki yil xon bulib, Saidiya davlati asoschisi darajasiga yetishishi Zaxiriddin Muhammad Bobur podshohning o‘sha buyuk xizmati natijasi tufaylidir.

Muhammad Haydar ko‘ragon ana o‘sha Sulton Saidxon huzurida 24 yil xizmat qildi, yirik davlat arbobi bo‘lib yetishdi.

³¹ Захириддин Мухаммад Бобур. Бобуорнома. Т. 2002. Б. 75.

Ikki fundamental asar «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy» Xirotda adabiy-madaniy muhiti talqinida shunchalik bir-biriga yaqinlashadi va bir-birini to'ldiradiki, bu ishda Muhammad Haydar mirzo Bobur mirzo bilan ijodiy musobaqaga tushganday bo'ladi. «Boburnoma»dan ko'pchilik xabardor bo'lganliklari uchun qayd etamizki, Bobur o'z asarida Abduraxmon Jomiy ismini tabarrukkagina eslatgan bo'lsa, Haydar mirzo Jomiy xayotining ajoyib sahifalarini juda izchillik bilan bayon etadi, uning risolasi matnini to'lig'icha keltiradi. Xirotda shoirlaridan ko'prok. Alisher Navoiy va Binoiy xakida, Mir Shayxim Ahmad Suxayliy, Husayn Ali Jaloyir, Osafiy, Oxiy, Xiloliy, Sayfiy Buxoriy, MirHusayn Muammoiy xususida tazkiralarga xos ixcham ma'lumot keltiradi va o'sha adabiy muxitga Nargisiy, Xajriy, amir Muhammad Solih, Xoja Abul Baraka Firokiy, Haydar Kalicha va boshkalar ham mansubligini qayd etadi. Hattotlardan Mir Ali Tabriziy, Mavlono Ja'far, Mavlono Abdullox oshpaz, Mavlono Muhammad Kotibi Samarkandiy, Mir Abdulxay, Mavlono Azhar, Mavlono Shayx Abdullox; Xorazmiy, Mavlono Sulton Ali Mashxadiy, Mavlono Alouddin, Sulton Muhammad Xandon, Mavlono Zayniddin Maxmud, Sulton Muhammad Hyp, Mavlono Qosim Ali, Mavlono Muhammad Abrishimiy, Qosim Shodi Shox, Mavlono Mir Ali va boshkdlarning har birining hattotlikdagi salohiyati, zaka va kobiliyatlari xamda xatlarining saviyasi xakida bafurja mulohazalar yuritilgan.

Rassomlardan Shox Mo'zaffar, Kamoliddin Behzod, Qosim Ali Chehrakushoy, Maksud, Mavlono Mirak Nakqosh, Ustod Boboxoji, Ustod Shayx Axmad, Mavlono Junayd, Ustod Xisomiddin, Mavlono Vali, Mullo Yusuf, Mavlono Darvesh Muhammadlarning mahorat, qobiliyat va ishlari saviyasi tahlil etilgan. Kitob mo'zaxhib-zarxalchilaridan Mullo Yoriy, Mullo Vali, Mavlono Maxmud, xofiz va musika cholg'uchilaridan Xofiz Basir, Xofiz Xasan Ali, Xofiz Jomiy, Xoja Abdullox Marvorid, Ustod Sayd Muhammad Bijjakiy, Mazhari Udiy, Ustod Qul Muhammad, Ustod Haydar Shox Balaboniy, Ustod Shayx Noyi nomlari zikr etilgan.

Ushbu uzundan-uzok ruyxat shuni ko'rsatadiki, xirotda ilk sabog'ini olgan Haydar mirzo Shark, tamaddunining ushbu markazi madaniy muhiti manzarasini har

tomonlarni mukammal o'rganib olgan va o'z tarixida muhim qaydlar qilgan.

Haydar mirzo nazarida ushbu ma'naviyat darg'alari safida turuvchi kishilar, Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda «asl ilm - din ilmi» donishmandlari, arboblari, aziz-avliyolar ham borlar: Abdurahmon Jomiy, Mavlono Sa'diddin Koshg'ariy, Mavlono Nizomiddin Xomush, Hoja Alouddin Attor, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ubaydullox Axror, Mavlono Dovud Xisoriy, Mavlono Shayx Husayn Muxtasib, Mavlono Shamsiddin Baxrobodiy, Mavlono Shamsiddin Muhammad (Zavjiy) Rumi, Xoja Abdulaziz Jomiy, Shayx Purnon, Mavlono Abu Sayd Ubaxiy, Mavlono Mu'in Voiz, Mavlono Xoja Kuxiy, Xofiz Maxmud Ziyoratgohiy va boshkalar xakidagi ma'lumotlar yanada mufassalrok, berilgandir.

Bobur mirzo va Haydar mirzolar shaxsiyatida din va shariatga munosabat deyarli bir xil. Har ikkisi ham Muhammad (s.a.v) dini, shariati va bu soxaning jonbozlari - targ'ibotchilari bo'lgan ulug' pirlarga: Bobur Xoja Ubaydullox, Axror, uning o'g'illari Xoja Yah'yo va nabiralari Xoja Ya'qub, Andijon qozisi va piri Muhammad Qoziga kuchli e'tiqod bilan yashaganidek, Mirzo Muhammad Haydar ham Xoja Muhammad Nuroga, Mavlono Tojiddin, Mavlono Arshadiddinga ulug' ehtirom bilan qaraydi.

Podshox Bobur «Vakoe'» («Boburnoma»)ni turkiy - eski o'zbek tilida yozdi. U turkiy xonadon farzandi bo'lgani uchun Alisher Navoiy singari shu til va shu adabiyot uchun jon kuydirdi. Mirzo Xdydar ko'ragon esa turkiy oiladan chiqqan bo'lsa-da, Kashmirda ziyolilar orasida fors tili va adabiyoti an'anasi hukmron bo'lgani uchun «Tarixi Rashidiy»ni fors-tojik tilida yozdi.

«Boburnoma» tarixiy asardan ko'ra, esdaliklar deb atashga munosibrok. tuyilsa, «Tarixi Rashidiy»da aksincha memuar asarga nisbatan tarixiylik ustunlik kiladi. Shuning uchun «Vaqoe'» («Boburnoma»)da asosan Bobur mirzo o'zi xaqida yozgan bo'lsa, Muhammad Haydar mirzo o'zi bilan bog'lik, vokealarni asarga kamrok, kiritadi. Shu ma'noda «Boburnoma» ijodkorida adiblik saloxiyati, «Tarixi Rashidiy» muallifida tarixchilik iktidori ustuvorlik kiladi.

Buni anikrok tasavvur etadigan bo'lsak, Podshox Bobur shaxsi «Boburnoma»ning asosiy vokealarida boshdan-oyok, ishtirok etadi. Muhammad

Haydar mirzo haqidagi ma'lumotlar «Tarixi Rashidiy»da ayrim boblardagina beriladi, xolos.

«Boburnoma» - qomusiy asar. Undagi ma'lumotlarga asoslanib ijodkorini shoir, adib, tarixchi, tilshunos, elshunos, nabototshunos, zoolog, xullas yigirmadan ortik; kasb-hunar egasi deb aytish mumkin. «Tarixi Rashidiy» muallifini ham biz tarixchi, geograf, adib, shoir, elshunos, dinshunos, adabiyotshunos, tilshunos, san'atshunos, hattot, xunarmand deya olamiz.

Ushbu ikki asardagi yana bir mushtarak holat: har ikki nodir yodgorlikda tarixiy shaxslar sonlarining haddan tashkari ko'pligidir. «Tarixi Rashidiy» bu masalada «Boburnoma»dan kolishmaydi.

«Tarixi Rashidiy»da temuriylar sulolasi, boburiylar sulolasi, mo'g'ul xonlari sulolasi, o'zbeklar sulolasining tarixiy manzarasi kitobxon ko'z o'ngida butun kengligi va ko'pligi bilan namoyon bo'lsa, ayni paytda qozoq xonlari, safaviylar sulolasi xamda kirgiz biylari ham ma'lum ma'noda tarixchi nazaridan chetda qolmagan.

Soxibkiron Amir Temur, Shoxrux mirzo, Mirzo Ulugbek, Abusaid mirzo, Husayn Boyqaro, Bobur Podshox, Humoyun mirzo, Komron mirzo faoliyatlari, jang-jadallari tasviri biryokdan; Abulxayrxon, Shayboniyxon, Ubaydulloxdonlar ikkinchi tomondan va uchinchi tomondan mo'g'ul xonlari: Turluk, Temurxon, Yunusxon, Sulton Maxmudxon, Sulton Axmadxon, Abobakr mirzo, Sulton Saidxon, Abdurashidxon va nihoyat, to'rtinchi tomondan qozoq xonlari: Girayxon, Qosimxon, Toxirxonlar, Buydoshxon beshinchi tomondan, safaviylardan Shox, Ismoil Safaviy, Shox, Taxmosplar silsilalari asar bo'ylab harakatdadir.

Mirzo Haydar «Tarixi Rashidiy»da mirzolar, xonlar, o'zbeklar va qozoq, hukmdorlariga doir voqealarni talkin qilar ekan, buyuk insonshunos sifatida (bu sifat Boburga ham juda xos edi) har bir xukmdorning ma'naviy-ahlokiy olamini ham ochib berish payida bo'ladi.

Muallif-adib bir necha xil ijtimoiy siymolarni kitobxon ko'z o'ngida tizadi. Ulug' maqsadli buyuk jahongir va lashkarboshi xukmdorlar: Amir Temur, Turluk; Temurxon, Abusayd mirzo; ma'rifatli xukmdorlar - Mirzo Ulug'bek, Husayn

Boykaro, Yunusxon, Bobur mirzo, Ubaydulloxon, Sulton Saidxonlarni bir tomondan, razil-shafkatsiz, insofsiz, mutakabbir, yovoʻz xon, shox, va beklar: Abobakr mirzo, Mirzo Ali Togʻay, Kuchluk, Doʻstmuhammadxon, Muhammadilarni ikkinchi tomondan gavdalantiradi.

«Tarixi Rashidiy» XVIII asrdan boshlab xozirgacha dunyoning 10 dan ortik, tillariga tarjima kilingandir. Jumladan, INBLIZ (bir necha marotaba), nemis, fransoʻz, xitoy, kozok, turk, uyrur, rus, kirriz va boshqa tillara ugirilgan.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak Markaziy Osiyo mamlakatlari haqida yozilgan fundamental tarixiy asarlardan Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» («Zafarli yurishlar dostoni»), Fazlulloh Rashididdinning «Jomeʼ ut-tavorix» («Tarixlar toʻplami»), Hamidulloh Mustavfiyning «Tarixi guzida» («Saralan-gan tarix»), Otamalik Juvayniyning «Tarixi jahonkushoy» [(«Fotihlik tarixi»), Muhammad Mirxondning «Ravzat us-[safo» («Poklik bogʻi»), Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma», Shermuhammad Munisning «Firdavs ul-iqbol» («Saodat bogʻi»), Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asarlari qatorida Muhammad Haydar mirzoning «Tarixi Rashidiy» asari ham alohida oʻrin tutadi. Oʻzbekiston va jahon tarixchi olimlari «Markaziy Osiyo haqidagi yagona mukammal asar» deb bir ogʻizdan tasdiqlagan «Tarixi Rashidiy» nafaqat Moʻgʻuliston, ayni paytda Oʻrta Osiyoning oʻsha davrdagi yirik shaharlari Andijon, Toshkent, Xoʻjand, Sayram, Turkiston, Oʻratepa, Samarqand, Buxoro, Qarshi, Hisor, Qunduz, Marv va boshqa mamlakatlar: Afgʻoniston, Pokiston, Hindiston, Sharqiy Turkiston va Kashmirning XV-XVI asrlardagi tarixini oʻrganishda birlamchi asosiy manbalardan boʻlib xizmat qiladi.

II BOB. ASARDA SHARQIY TURKISTON TARIXIGA OID MA'LUMOTLAR VA ULARNING TARIXIY TAHLILI

II. 1. Asarda Sharqiy Turkiston tarixiga oid ma'lumotlar tasnifi

Muhammad Haydar mirzoning «Tarixi Rashidiy» asari Sharqiy Turkistonning XV-XVI asrlardagi tarixini o'rganishda birlamchi asosiy manbalardan bo'lib xizmat qiladi. «Tarixi Rashidiy» asarida Sharqiy Turkiston tarixiga oid bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Muallif Sharqiy Turkistondagi shaharlar, hududlar, bu hududda yashovchi xalqlar va ularning turmush tarzlari haqida ko'plab ma'lumotlar keltiradi. «Tarixi Rashidiy»da Qoshg'ar quyidagicha tasvirlangan. “ Qoshg'ar qadimiy va mashhur shaharlar qatorida turadi. Qadimgi davrlardanoq Qoshg'ar sultonlari Afrosiyob nasliga mansub bo'lishgan. Afrosiyob turkni mo'g'ullar Buqoxon deb atashgan. Mana uning nasl-nasabi: Afrosiyob ibn Po'shang ibn Dodnishin ibn Tur ibn Afridun. Bu ma'lumot «Tarixi go'zida» (Tarixlarning sarasi) asaridan olindi, muallif uni Xoja Rashididdin Fazlullohning «Majma at-tavorix» asaridan olgan. Boshqa tarixiy asarlarda bundan ko'proq ma'lumot berilgan.³²

Qoshg'ar sultonlari naslidan yoshlik paytidayoq islomni qabul qilish sharafiga Sotuq Bug'raxon muyassar bo'ldi. Keyin, podshoh bo'lgach, islomni butun Qoshg'ar viloyatiga tarqatdi. Undan keyin uning urug'idan tag'in bir nechta kishi Koshg'arning, hatto Movarounnahrning hukmdorlari bo'lishdi. Chingizxon istilosidan oldin Qoshg'arxoni Toyongxon naymanning o'g'li Kuch-luk bo'lgan. U Chingizxondan qochib kelib, Koshg'arni Go'rxon qoraxitoy noiblaridan tortib oldi, Go'rxon qoraxitoy esa ungacha Koshg'arni Afrosiyob noiblaridan tortib olgan edi. O'sha paytda Samarqand va Movarounnahrning katta qismining hukmdori shu urug'dan chiqqan Sulton Usmon bo'lgan. Sulton Usmon bilan Xorazmshoh o'rtasida bo'lgan voqealar barcha tarixiy asarlarda mufassal bayon qilingan.”³³

³² Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. II Шарқ. 2010. –Б.403.

³³ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. II Шарқ. 2010. –Б.404.

Muhammad Haydar mirzo «Tarixi Rashidiy» asarini yozishda oldin yuz bergan tarixiy voqealarni avval yozilgan tarixiy asarlardan olgan. Buni muallifning o'zi ham ko'p bor ta'kidlaydi. Xususan "Kuchluk isyoni va Qoshg'ar ustidan mo'g'ullar hokimiyatining o'rnatilishi haqidagi ma'lumotlarning hammasini men «Tarixi jahonkushoy» asaridan keltirdim."deb ta'kidlaydi. Muhammad Haydar mirzo Sharqiy Turkiston hududidagi shaharlar XU1 asirgacha bo'lgan tarixini yozishda o'zidan oldin yashagan tarixchilarning asarlaridan keng foydalangan. XV-XVI asrdagi Mo'g'uliston degan jug'rofiy tushunchaga Xuroson, Movarounnaxr, xozirgi Qoshg'aru Badaxshongacha,Hindiston shimolidan butun Oltoy o'lkasi hududlari kirgan. Xozirgi geografiya bilan sobiq Mo'g'ulistonga (Mongoliya emas) daxldor yerlarni belgilasak: Shinjong avtonom rayoni yerlari, QOZORISTONNING katta kismi, butun Oltoy o'lkasi, Qirgiziston, Tojikiston va O'zbekistan yerlari edi. Binobarin, muallif mo'g'ul xonlari tarixi deb hisoblagan «Tarixi Rashidiy» asari aslida biz turkiylarning ham tariximiz bo'lib xisoblanadi.

«Tarixi Rashidiy»da Sulton Saidxon hikoyasida Sharqiy Turkistonning o'sha davrdagi tarixiga oid quyidagi ma'lumotlar yozilgan.

"Saidxon haqidagi hikoyamiz uning Farg'ona viloyatini tark etib, Mo'g'uliston yo'li bilan Koshg'arga jo'nagan joyida o'zilgan edi. Abobakr mirzo buni eshitgach, yetti kun ichida Qoshg'ar qal'asini qurdirib, u yerga ming kishilik otliq va piyoda lashkarni, bir necha yilga yetadigan oziq-ovqatni joylab, bunga amir Yusufanni boshliq qilib ko'ydi. U yerdagi ishlarni imkoni boricha tugallab, o'zi Yangi Hisorga ketdi. U yerda ham oziq-ovqat, qal'a himoyasi uchun qurol-aslahalarni g'amlab, Yorkandga ketdi. Bu orada Saidxon To'yunboshiga yetib keldi, bu yer Mo'g'ulistonning Qoshg'ar tarafdagi chegarasi hisoblanadi. U yerda oilasi, yuklari ortilgan aravalarni qoldirdi, ular orqadan sekin borishlarini tayinlab, o'zi ko'p sonli lashkari bilan oldin ketdi. Birinchi kechani Mirzo Turki degan joyda o'tkazdi. Ikkinchi kun Tushkuda to'xtadi. Uchinchi kun Ortujga yetib, Kubroviya mashoyixlaridan hazrati Shayx Habibning muqaddas mozorini ziyorat qildi. Bu shayxga tegishli g'aroyibotlardan biri shuki, shayxning xonaqohsidagi bir ustun

qisqarib qolgach, odamlar uni olib qo'yishdi, ammo xonaqoh qanday bo'lsa shunday qulamasdan turipti. Buni ko'rgan Saidxon, Qur'on tilovat qildida, ulug' shayxning ruhidan madad so'radi. Ertasiga sharq lashkarining sardori (quyosh) g'arb lashkarini (tun) yengib, butun olamni o'z nurlari lashkari bilan egallab olganida, xon Ortujdan yo'lga chiqdi.

Nazm:

Oppots tong taralib chisdi olamga, Sabo erkalatib gul yuzin ochdi. Yuldo'zlar podshosi munavvar sharsdan, Olamga zarhalin etaklab sochdi.

Uchburhon degan joy bor, u yerda Qonluq Qiyo degan daraga qarab To'yunboshi daryosi oqib o'tadi. Xon shu yo'ldan keldi. Uchburhon oldida mana shu daryoni kesib o'tish kerak edi. yerda bir tepalik bo'lib, uning ustiga chiqib qaralsa, taxminan uch shar'iy farsax narida Qoshg'ar ko'rinadi. Abobakr mirzo tepalikda kungirali devor qurdirib, tog'ning nishab joylari bo'ylab, uni daryo sohilidagi jarlikkacha yetkazdi va u yerda darvoza qildirdi. Tavochilar o'sha tor yo'lakka joylashib olib, lashkarni birin-birin o'tkazib, hisobini olsin, degan qat'iy farmon berildi. Lashkar ketidan lashkar kelib, ana shu tor joydan bittalab o'tishdi, tavochilar ularni sanashdi, baxshi-mirzolar yozib olishdi. Aravalarda oilalari bilan o'tirganlarni, yo'lni va lashkarlar harakatini ko'zatib turganlarni hisobga olmaganda, to'rt ming yetti yuz askar ro'yxatga olindi. Garchi jangchilar son jihatidan ko'p bo'lishmasada, barchasi mashhur lashkarboshi, qudratli amir, jasur bahodir, vaqt sinovidan o'tgan, makkor qismat zahar-zaqqumlarining achchig'ini, hayotdagi ho'zur-halovatlarining shirin ta'mini totib ko'rgan oqil insonlar edi. Toshkand tor-mor etilgan to'ng'iz yili, ya'ni 908 (1502-1503) yildan to hozirgi kungacha ya'ni, to'ng'iz yili, 920 (1514-1515) yilgacha oradan o'n ikki yil o'tdi, bu yillar dahshatli urush, jangu jadal, o'zaro olishuvlar bo'lgan dolg'ali davr bo'ldi. O'sha to'rt ulusdan o'zbek, chig'atoy va mo'g'ullar tinmay bir-birlari bilan urushib turishardi. Nazm:

Bir-birin terisin shilishgan chogda,

Kim do'stu kim dushman, bilmasdan dogda.

Bu odamlar o'n ikki yil davomida beqaror qismatning kajraftorligini, son-

sanoqsiz o'zgarishlarning og'irliklarini shu qadar ko'p totib ko'rishdiki, zamon sinovlarida chiniqib, jangu jadal qoidasini o'rganib, katta tajriba to'plashdi, shu bilan birga har birining fikr-o'ylari harbiy ish bilan band bo'ldi. Bu holat faqat amirlargagina xos emas edi, har bir mo'g'ul qavmida bunday ulug' odamlar ko'p edi, ularning mulohaza va maslahatlariga hamma quloq tutar edi. O'sha paytdan xotiramda qolganlari haqida ikki og'iz to'xtalaman. Birinchisi - do'g'lat qavmi bo'lib, ulug' sardori va eng nomdori amakim Said Muhammad mirzo edi, o'shanda uning yoshi qirq birda edi. U lashkarning tayanchi, madadkori va sardori edi. Fikr-mulohazalariga hamma quloq solar, o'tkir aqli bilan ajralib turardi. Said Muhammad mirzo haqida, qilgan ishlari xususida oldin aytib o'tdik: u zamondoshlari ichida mashhur, tengi yo'q edi. O'sha paytda har to'rttala ulusda ham unga o'xshagan odam bo'lmagan bo'lsa, ajab emas. Hisoblarga ko'ra odamlari soni ikki yuz sakson kishi edi.

Shuningdek, boshqa mo'g'ul qavmlari haqida to'xtalib o'taman. Ulardan biri do'xtuy qavmidir. Sardori Mir Doim Ali edi. O'sha kunlari uning ukalari Ahmad Ali bilan Muhammadquli hali kelishmagan edi. Mir Doim Ali o'sha qavmdan chiqqan jasur, ulug' amirlardan, bundan keyin u turli joylarda tilga olinadi. U bilan barlos qavmi orasida, hali o'sha paytda aniq qaror topmagan ustunlik uchun janjallar bo'lib turardi. Nima bo'lganda ham Mir Doim Ali kattalikni qo'ldan bermasdi. Keyingisi barlos qavmi edi. Uning sardori Ali Mirak mirzo amakimga tog'a bo'lib, o'g'illari va og'a-inilari bor edi. O'g'illaridan biri Muhammad, u haqda hali to'xtalamiz. Bir qancha hurmatli mo'g'ul amirlarining yoshlari o'tib qolgan, o'sha paytda mo'g'ul ulusida ulardan kattasi yo'q edi, barcha muhim masalalarda ulardan maslahat so'rashardi.

Yana biri yorqi qavmi edi. Ularning yetakchisi va yoshi eng ulug'i amir Koko edi. Biroq janglardagi qiyinchiliklarga u bardosh berolmasdi, shuning uchun barcha ishlarni Mir Qanbarga yuklardi. Qaror chiqarish, maslahatlar berish huquqini unga topshirib, o'zi chetlashdi. Yana bir qavm o'rdubegi bo'lib, sardori Qorabosh mirzo edi. Uning nomi keksalar qatorida tilga olindi. Keyingisi churos qavmi edi. Yetakchisi Munkabek bo'lib, jasurlikda tengi yo'q edi. Uning odamlari yuzdan

oshardi.

Yana biri bekchik qavmi bo'lib, Mir Ayyub ular orasida eng mashhuri edi Churas va bekchik qavmlari orasida ustunlik uchun ko'rashlar, kelishmovchiliklar bo'lardi. Keksa amirlar yig'ilishib, shu masalani muhokama qilishdi. Oxir-oqibat, ustunlikni aniqlash har bir xon davrida o'sha xonning ixtiyori bilan amalga oshiriladi, degan qarorga kelishdi. Saidxon shunday farmon chiqardi: «Sizlarning oralaringizdagi ustunlikni endi men belgilamayman - bu o'z qo'llaringda. Har yili bittangiz o'z afzalligini namoyish qilishi kerak. Kimki o'z jasorati bilan ajralib tursa, ustunlik o'shanga beriladi». Ular shu qarorda to'xtashdi, lekin bahslar haligacha davom etmokda va o'z yechimini topolmayapti.

Tumachi, Sha'bon bahodir, To'xtaqli bahodir, O'zunsoqol va To'xta bahodirlar ham bor edi. Ular boyrin qavmining sardorlari bo'lib, obro'li, tajribali odamlar edi.

Navbatdagisi qaluchi qavmining yetakchisi Tuqon bahodir davrining eng hurmatli lashkarboshilaridan edi. Keyingisi qorluk qavmining sardori Malik Ali bahodir jasur inson edi. Yana bittasi makrit qavmining yetakchisi Qulika bahodir, shunqorchi qavmining boshlig'i Umarshayx edi. Bu odamlarning barchasi qavm yetakchilari bo'lib, har birining qo'l ostida odamlari bor edi. Tag'in bir guruh odamlar bor ediki, ularning navkarlari yo'q, yolg'iz bo'lishsa-da, ko'plab janglarda jasorat namunalarini ko'rsatib, qavmdoshlariga o'rnak bo'lishgan va ularga «bahodir» unvoni berilgan edi. Ular janglarda ishtirok etib, keyin tilga olinadigan urush-larda bahodirlik ko'rsatishgan. Mana ayrimlarining ro'yxati: Midaka bahodir, Abdulvohid, Xudoyquli shig'ovul, Yusuf ba-kovul, Muhammadquli tuman, Ko'kshuy devona, Qoradona Quli, Shixnazar yasovul, Yarka yasovul, Haqnazar devona, Ali Qurochi, Shoh Mirak qalandar, Bobo qulog'on, Tangriberdi boypesha, Haqnazar qug'uchi, Poicha miroxo'r, Mir Mazid mankish, Suqar qaluchi, Suqar uxsi, borin Oruq mirzo va boshqalar. Bu yerda o'z davrida e'tibor qozongan ayrim nomlarni sanab o'tdim, xo-los, ularning har biri o'ziga qiyoslaganda Rustamni kekxa chol deb, durkun Isfandiyorni haykal deb hisoblashgan. Ro'yxatni davom

ettiraversam, hikoya cho‘zilib ketardi.”³⁴“Tarixi Rashidiy”da keltirilgan ushbu ma’lumotni tahlil qildigan bo‘lsak, Eng avvvlo shuni alxida takidlash kerakki, Xozirgi geografiya bilan sobiq Mo‘g‘ulistonga (Mongoliya emas) daxldor yerlarni belgilasak: Shinjong avtonom rayoni yerlari tug‘ri keladi.Ushbu ma’lumotda Sulton Saidxonning Mo‘g‘ulistonga yetib borishi batafsil tasvirlab berilgan.Tasvirlash jarayonida bir qancha joy nomlari, shaharlar, mavzielar Aniq va batafsil yozilgan Bu ma’lumotlar Sharqiy Turkistonning o‘sha davr toponimikasini o‘rganishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Mirzo Turki, Tushku, Ortuj, Uchburhon, kabi joy nomlari Qonluq Qiyo degan dara nomi,

To‘yunboshi daryosi nomi, Kubroviya mashoyixlaridan hazrati Shayx Habibning muqaddas mozor haqidagi ma’lumatlar bayon qilingan.Bulardan tashqiri o‘sha davrdvgi do‘g‘lat, do‘xtuy,barlos,yorqi,o‘rdubegi, kunji, churos.bekchim.kaluchi.boyrin,qorluq,makrit kabi qavmlar va ularning o‘zaro munosabatlari ma’lumrtlar berilgan. Saidxon, Abobakr Yusfa, Said Muhammad mirzo, Mir Doim Ali, Qorabosh mirzo, amir Jonaka,

Munkabek, Mir Ayyub, Tumachi, Sha‘bon bahodir, To‘xtaqli bahodir, O‘zunsoqol va To‘xta bahodir, Tuqon bahodir, Midaka bahodir, Abdulvohid, Xudoyquli shig‘ovul, Yusuf ba-kovul, Muhammadquli tuman, Ko‘kshuy devona, Qoradona Quli, Shixnazar yasovul, Yarka yasovul, Haqnazar devona, Ali Qurochi, Shoh Mirak qalandar, Bobo qulog‘on, Tangriberdi boypesha, Haqnazar qug‘uchi, Poicha miroxo‘r, Mir Mazid mankish, Suqar qaluchi, Suqar uxsi, borin Oruq mirzo kabi qavm boshliqlari,sarkardalar haqida ham qimmatli ma’lumotlar mavjud.

“Tarixi Rashiiy”dagi Sharqiy Turkiston traixiga oid ma’lumotlarni tacniflaydigan bo‘lsak, asarda Sharqiy Turistonning siyosiy tarixiga oid ma’lumotlar alohida ahamiyatga ega.Misol uchun Sulton Saidxonning Qoshg‘arni tor-mor etishini quyidagicha sharhlaydi.

“Yangi Hisor qal’asi yuqorida bayon etilgandek, qo‘lga olingach, Saidxon Koshg‘arning g‘amini yeya boshladi. Uchinchi kuni, koshg‘arliklar Koshg‘arni

³⁴ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. ИШарк..2010.-Б. 420-426.

tashlab, har kim qo‘lidan kelgancha jonini qutqazib, ot-ulovlarni haydab ketishganini xabar qi-lishdi. Buni eshitib xursand bo‘lgan xon Koshg‘ardan xotirjam bo‘lib, muborak oyog‘ini g‘olib uzangiga qo‘ydi-da, zafar tizgi-nini Yorkand tarafga burdi va ulug‘ g‘alaba hamda omad soyasida yo‘lga tushdi. Xoja Ali bahodirni oldinroq jo‘natdi.

Nazm:

Yeru ko‘k junbushga kirdi nogahon, Go‘yoki parvozga shaylandi osmon.

Otlar kishnadilar, lashkar changitdi, Osmonning suyoshu oyi ham yitti.

Yangi Hisordan keyingi birinchi bekat Soylida bo‘ldi. Bu yerda ular shavkatli lashkarning chodirlarini tikishdi. Shu paytda, Abobakr mirzo Yorkandni o‘g‘li Jahongir mirzoga topshirib o‘zi Xo‘tanga ketdi, degan xabar keldi. Xon yurishni tezlatdi. Qizilga yetib kelgach, eshitdiki, Jahongir mirzo ham ketipti, Xoja Ali bahodir esa Yorkandga kiritpti.

920 yil rajab oyining oxirida (1514 yil 15 sentyabrdan keyin) xon Yorkandga kirib keldi va yarqiroq shamshirining suvi bilan jabr-zulm va dushmanlik changini bostirdi. Barcha ezilgan insonlar tilida g‘alabaning mana bunday quvonchli qo‘shig‘i yangradi. Nazm:

Qaddingga yarashmish shohona libos, Tojingning ziynati avlodiy meros.

Zulmat qoplar jumla jahonni butkul, Yarqirab turmasa titngday olmos.”³⁵

“Tarixi Rashidiy”da Sharqiy Turkistonntng nafaqat siyosiy tarixiga oid ma’lumotlar balki,Sharqiy Turkistonga oid ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy,geografik, etnografik, toponimik ma’lumotlar mavjud.Xususan,

Mo‘g‘uliston haqida quyidagi ma’lumotlar beradi. “Mo‘g‘ulistonning g‘aroyib jug‘rofiyasi va kengliklari birorta kitobda qayd etilmagan. Faqat bir qancha shaharlari ayrim tarixiy kitoblarda sanab o‘tilgan, xolos. Ulamo va hukamolarning, «Suvar al-aqolim» («Jahon mamlakatlari rasmlari»), «Ta’rifi buldon» («Mamlakatlar ta’rifi») singari kitoblarida ko‘p mamlakatlar mufassal ta’riflangan, ammo Mo‘g‘uliston haqida qisqacha ma’lumot bor, xolos. Ehtimol, u kitoblarning

³⁵ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. ИШарқ,2010.-Б. 449.

mualliflari bu o'lka bilan tanish bo'lmagandir. Ularga nima ma'lum bo'lsa, o'shani bayon qilishgan. Men faqir banda bu mamlakat to'g'risida mufassal hikoya qilaman.

«Tarixi jahonkushoy»da yozilishicha, tatarlarning azal-abad turar joylari Qur'on oyatida aytilgandek: «Sening muqaddas bayting huzuridagi ekin o'smaydigan bir vodiya joylash-tirdim» (14.37). Bu hududni aylanib chiqishga yetti-sakkiz oy talab qilinadi. Mo'g'uliston sharq tomondan Xitoy bilan, g'arbda - Uyg'ur viloyati bilan, shimolda Qoraqiz va Solingoy bilan, janubda Tangut va Tibet bilan chegaradosh. «Tarixi jahonkushoy»da aytilgan to'rtta o'lkadan hozir faqat Xitoy ma'lum. Juvayniy aytgan Uyg'ur viloyati, uning qaerdaligi haqida hozir hech narsa bilmaymiz. Qoraqiz va Solingoylar haqida ham hech narsa ma'lum emas, hozir bunday nomdagi joylar ham yo'q. Tangut nomi mo'g'ullarning ayrim tarixiy asarlarida uchraydi. Chingizxon istilochilik yurishlarining boshida o'sha yoqlarga qo'shin tortib borgan. O'ktoy qoon ham mamlakatlarni zabt etganda ko'p joylarga lashkar tortib borgan, shulardan biri Tangut bo'lgan. Tarixiy asarlar mazmuniga qaraganda, bu juda katta viloyat bo'lgan. O'sha paytda u yerning hokimi Shidarqu bo'lgan. Ko'p kitoblarda ta'kidlanganidek, uning lashkari sakkiz mingdan iborat bo'lgan, lekin hozir bu haqda aniq bir fikr aytish qiyin.

Shuningdek, kitoblarda Mo'g'ulistonning bir qator shaharlari tilga olinadi va mufassal ta'riflanadi. Shulardan biri Bolosog'undir. «Suvar al aqolim» kitobida Xitoy shaharlaridan Xonbaliq, Mo'g'uliston va Qoraxitoydan ana shu Bolosog'un tilga olinadi. Mo'abbas tarixiy kitoblarda yozishlaricha, Bolosog'un Afrosiyob tomonidan qurilgan shaharlar sirasiga kirarkan, o'sha kitoblarda bu shaharni juda maqtashgan. «Majma' ut-tavorix»da shunday deyilgan: «Bolosog'un qoraxitoylarga qadar Afrosiyob avlodlari qo'li ostida bo'lgan, Qoraxitoy Go'rxon Bolosog'unni Afrosiyob urug'idan bo'lgan Ilelxondan tortib oldi va uni poytaxt qildi. To'qson besh yil davomida Bolosog'un qoraxitoylarning poytaxti bo'ldi va Jayhunning bu tarafidagi sharqiy o'lkalarning hammasi unga xiroj to'lagan. Mo'g'ullar Bolosog'unni Qozboliq deyishadi. Qalmoqlar hozir uni Qoynuq deyishadi. Qozboliqni ayrim kitoblarda Qiyoliq deb yozishgan. «Suroh al-lug'ot» («Tilning

aniqligi») kitobining muallifi «Mulhaqot us-suroh» («Tilning lugʻati» kitobiga sharh)da: «Otam Bolosogʻun hofizlaridan hisoblanadi», deb yozgan va oʻz «Sharh»ida har bir shahardagi olimu fozillarning nomlarini keltirgan. Samarqandlik olimlardan oʻnga yaqin olimning ismi-sharifi keltiriladi, Bolosogʻunlik ulugʻ insonlar hamda olimlardan shunchalik koʻp kishini sanab, ular haqidagi hikoyalarni keltiradiki, shuncha olim bir vaqtda, bitta shaharda yashaganiga aql bovar qilmaydi. Hozir Bolosogʻunda ular haqida hech kim hech narsa bilmaydi. Qoraliq degan joy haqida ham eshitmadim. Kitoblarda tilga olingan shaharlardan biri Toroz boʻlib, moʻgʻullar uni «Yongi» deyishar ekan. Yongi degan joy rostdan ham Moʻgʻulistonda joylashgan. Yongidan kelgan odamlar Movarounnahrda koʻp, ularni «Yongilik» deyishadi. Biroq oʻsha Yongi deb atalgan saholarda koʻplab shaharlarning izlari saqlangan: minoralarning gumbazlari, xonaqo, madrasalarning osoru alomatlari, qoldiqlari bor. Ammo mana shu qadimiy shaharlardan qaysi biri Yongiyu, boshqalari qanday atalgani nomaʼlum.

Navbatdagi yirik shahar Olmaliqdir, u hozir ham bor. U yerda Tugʻluq Temurxonning daxmasi bor, ilgarigi shahar hayotining belgilari saqlangan. Daxmaning gumbazi juda baland, kitoba-yozuvlar bilan naqshlangan. Xotiramda shu kitobalardan bir misrasi saqlanib qolgan: «Bu imorat - shaʼrbof (toʻquvchi) ustaning ishi», deb yozilgan edi. Shundan maʼlumki, bu usta iroqlik boʻlgan, chunki Iroqda toʻquvchini «shaʼrbof» deyishadi. Agar xotiram pand bermasa, oʻsha gumbaz tepasidagi tarixda 760 (1358-59) yil koʻrsatilgan edi.

Moʻgʻulistonda tagʻin koʻplab shaharlar bor, u yerlardagi baland imoratlarning izlari saqlanib qolgan, ayrimlari esa buzilmay butunligicha saqlangan. Uning bir joyida katta shahar qoldiqlari mavjud. Bir qancha joylarda minora, gumbaz, madrasalar saqlangan. Hech kim bu shaharning nomini bilmagani bois, moʻgʻullar uni Minora deb atashadi. U yerda bir gumbaz bilan toshdan qilingan lavha bor, oʻsha lavhada nasx xatida shunday soʻzlar oʻyib yozilgan: «Bu ulugʻ imom haqiqat va kamolot ahlining peshvosi, oqillarning yetakchisi, asosiy va tarmoq ilmlarining donishmandi Imom Muhammad faqih Bolosogʻuniyning maqbarasidir. Bu kishi 711 (1311-1312) yilda vafot etgan. Bituvchi Umarxoja

haddod (temirchi)».

Mo'g'ulistonda Chu degan joy bor. Masofasi bir oylik yo'ldir. Minoraga o'xshagan shaharlar ko'p. Mo'g'ulistonda Yumg'ol degan mashhur mavze ham bor. U yerda yarim haroba holga kelgan gumbaz mavjud. Undagi yozuvdan: «Shoh Jalil ibn Qusam ibn Abbos...» degan so'zlarni o'qiyoldim, qolgani sinib tushgan,

Xullas, bu uning qabrimi yoki shunchaki yozib qo'yilganmi, bu yog'ini Xudo biladi. Butun Mo'g'ulistonda shunga o'xshash yodgorliklar ko'p. Bu shaharlarning nomlariga kelsak, ular haqida hech narsa ma'lum emas.

«Miftoh» («Kalit») asarining muallifi Mavlono Sirojiddin Abu Ya'qub Yusuf Sakkokiyning qabrida gumbaz bor, u qadimda qurilgan bo'lib, hozir yarim vayrona holga kelgan va Boyko'l ko'lidan chiquvchi Tika daryosi sohilida joylashgan. U yerda bu gumbazdan bo'lak hech narsa yo'q. Bu yerda yo shahar bo'lganu, uning izlari yo'qolib ketgan, yoki bo'lmasa, Chig'atoyxon Sakkokiyni tutib o'ldirgan paytda uning qabri ustiga shu maqbarani qurishgan, bu yog'i Allohga ayon. Sakkokiy tarixi tarixiy asarlarda bayon qilingan.

Mo'g'ulistonning boshqa joylari haqida o'tmishdoshlarimizning tarixiy va boshqa asarlaridagi ma'lumotlar asosida biron narsani aniqlash imkoni yo'q, nomlarini ham hech kim bilmaydi, ammo hozir Mo'g'uliston deb ataladigan makonning hududi eniga va uzunligiga yetti-sakkiz oylik yo'lni tashkil etadi. Uning sharqiy chegarasi qalmoqlar yurti Borsko'l, Emil va Ertishga borib taqaladi. Shimol tomonda Ko'kcha tengiz, Bumlish va Qoratolga tutashgan, g'arbdan Turkiston va Toshkand bilan chegaradosh, janubdan Farg'ona, Koshg'ar, Oqsuv, Chalish va Turfon bilan chegaradosh. Mana shu to'rtta chegara hududlaridan bu banda faqat janubini ko'rdim. Toshkanddan Andijongacha o'n kunlik, Andijondan Koshg'argacha yigirma kunlik, u yerdan Oqsuvgacha o'n besh kunlik, Oqsuvdan Chalishgacha yigirma kunlik, Chalishdan Turfongacha o'n kunlik, Turfondan Barsko'lgacha o'n besh kunlik yo'l, demak, Barsko'l Mo'g'ulistonning sharqiy sarhadi hisoblanadi. Butun sharqiy hudud ot bilan o'rtacha yurganda uch oylik yo'l bo'lib, to'qsonta bekatdan iborat. Qolgan uch hududni faqir banda ko'rmadim, ammo o'sha yerlardan o'tgan odamlardan eshitganim borki, u taraflarning masofasi

sharqiy hududdan uzunroq, yetti-sakkiz oylik yo'lni tashkil etuvchi butun hududning ko'p qismi tog'lar va sahrolardan iborat ekan. U yerlarning manzarasi shu qadar zo'r, shu qadar ajoyibki, bu banda go'zalligini tasvirlashdan ojizman. Mo'g'uliston tog'lari va cho'llarida turli-tuman gullar shunchalik ko'pki, nomlarini hech kim bilmaydi. Bunday gullar Mo'g'ulistondan boshqa hech qaerda o'smaydi, shuning uchun hech kim ular haqida yozmagan. Mo'g'ulistonning iqlimi asosan yozda mo'tadil, agar odamning ustida bitta ko'ylagi bo'lsa, bas, ustidan paxtali to'n kiyishning hojati yo'q. Mo'g'ulistonning ayrim o'lkalarida iqlim mo'tadildan sovuqqa moyilroq. Mo'g'ulistonda Jayhun yoki shunga o'xshash katta daryolar ko'p, aytaylik, Ila, Emil, Ertish, Cho'loq, Norin singari.

Bu daryolar Jayhun va Sayhundan mutlaqo qolishmaydi. Bu daryolarning ko'pi Ko'kcha tengiz ko'liga quyiladi. Ko'kcha tengiz Mo'g'uliston va o'zbeklar yurtini ajratib turuvchi ko'ldir. Uzunligi sakkiz oylik yo'l, kengligi ayrim joylarda o'ttiz farsax atrofida. Qish kelib, Ko'kcha tengizni muz qoplaganda, o'zbeklar Mo'g'ulistonga kelishadi. Muzdan o'tish uchun ular ikki kecha-kunduz katta tezlikda yurishadi va qish oxirida qaytishda ham xuddi shunday tezlikda qaytishadi. Ammo qish oxirida yurish xavfli, ba'zan muz yorilib, yuz ikki yuz oila muz ostiga cho'kib ketadi. Ko'lning suvi chuchuk. Ko'kcha tengizga ko'p daryolarning suvi quyiladi, lekin ular oqib chiqmaydi, faqat Otil daryosigina o'zbeklar yurti hududi bo'ylab oqib o'tib, Qulzumga quyiladi. Tarixiy kitoblarda buni Otil deb yozishadi. O'zbeklar uni Edil deyishadi.

Mo'g'ulistonning ajoyibotlaridan yana biri Issiqko'ldir. Unga taxminan Ko'kcha tengizga quyiladigan miqdordagi suv quyiladi. Undan suv oqib chiqmaydi. Issiqko'l aylanasi sakkiz kunlik yo'l. Uning atrofi tog'lar bilan o'ralgan. Unga quyiladigan hamma suvlar chuchuk va totli, lekin ko'lga qo'shilgan zahotiyoq suv shunday achchiq hamda sho'r bo'lib ketadiki, undan hatto yuvinish uchun ham foydalanib bo'lmaydi; agar ko'zga yoki og'izga tushsa, qattiq kuydira boshlaydi, og'izda esa yoqimsiz ta'm paydo bo'ladi. Ko'l suvi shunchalik toza va tiniqki, agar uni chinni kosaga solinsa, uning tubida hech qanday cho'kma qolmaydi. Tevarak-atrofdagi suvlar chuchuk va totlidir. U yerlarda xushbo'y gullar, o'tlar va mevali daraxtlar

o'sadi, tog'lari va cho'llarida kiyiklar va qushlar ko'p. Mo'g'ulistonda bunday manzarali va iqlimi yoqimli joy kam topiladi.

926 (1519-1520) yildan keyin qirg'izlar dastidan birorta mo'g'ul Mo'g'ulistonda yashayolmay qoldi. 928 (1521-22) yilda yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra Saidxon Mo'g'ulistonni egallashga qattiq sa'y-harakat qildi,³⁶

“Tarixi Rashidiy”da Mo'g'iliston xaqida keltirilgan ushbuma'lumotlarga diqqat qiladigan bo'lsak Mo'g'ilistonni tasvirlagan tarixchilarning ma'lumotlarini ham keltirib, ularga aniqlik kiritib, bundan tashqari o'zi ham qo'shimcha ma'lumotlar berib boyitgan.

2.Asarda Sharqiy Turkiston aholisining etnografiyasiga oid ma'lumotlar.

Mirzo Muhammad Haydarning «Tarixi Rashidiy» asarida Sharqiy Turkiston aholisining etnografiyasiga oid ma'lumotlar alohida ahmiyatga ega hisoblanadi, Asarda Sharqiy Turkiston hududida yashagan do'g'lat, do'xtuy, barlos, yorqi, o'rdubegi, kunji, churos, bekchim, kaluchi, boyrin, qorluq, makrit arlot, qavchin, qavmlari haqida qimmatli ma'lumotlar beradi,

“Tarixi Rashidiy”da Sharqiy Turkiston hududida yashagan qavmlar haqidagi ma'lumotlarni o'rganish natijasida bu yerda yashagan qavmlar ularning sardorlari va qavmlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishimiz mumkin. “Tarixi Rashidiy”da quyidagi qavmlar haqida ma'lumotlar beriladi. ”Birinchisi - do'g'lat qavmi bo'lib, ulug' sardori va eng nomdori amakim Said Muhammad mirzo edi, o'shanda uning yoshi qirq birda edi. U lashkarning tayanchi, madadkori va sardori edi. Fikr-mulohazalariga hamma quloq solar, o'tkir aqli bilan ajralib turardi. Said Muhammad mirzo haqida, qilgan ishlari xususida oldin aytib o'tdik: u zamondoshlari ichida mashhur, tengi yo'q edi. O'sha paytda har to'rttala ulusda ham unga o'xshagan odam bo'lmagan bo'lsa, ajab emas. Hisoblarga ko'ra odamlari soni ikki yuz sakson kishi edi.³⁷ Asarda Tibet axolisi etnografiyasining yoritilishi

³⁶ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. ИШарқ, 2010. –Б.420.

³⁷ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. ИШарқ, 2010. –Б.422.

Shuningdek, boshqa mo'g'ul qavmlari haqida to'xtalib o'taman. Ulardan biri do'xtuy qavmidir. Sardori Mir Doim Ali edi. O'sha kunlari uning ukalari Ahmad Ali bilan Muhammadquli hali kelishmagan edi. Mir Doim Ali o'sha qavmdan chiqqan jasur, ulug' amirlardan, bundan keyin u turli joylarda tilga olinadi. U bilan barlos qavmi orasida, hali o'sha paytda aniq qaror topmagan ustunlik uchun janjallar bo'lib turardi. Nima bo'lganda ham Mir Doim Ali kattalikni qo'ldan bermasdi. Keyingisi barlos qavmi edi. Uning sardori Ali Mirak mirzo amakimga tog'a bo'lib, o'g'illari va og'a-inilari bor edi. O'g'illaridan biri Muhammad, u haqda hali to'xtalamiz. Bir qancha hurmatli mo'g'ul amirlarining yoshlari o'tib qolgan, o'sha paytda mo'g'ul ulusida ulardan kattasi yo'q edi, barcha muhim masalalarda ulardan maslahat so'rashardi.

Yana biri yorqi qavmi edi. Ularning yetakchisi va yoshi eng ulug'i amir Koko edi. Biroq janglardagi qiyinchiliklarga u bardosh berolmasdi, shuning uchun barcha ishlarni Mir Qanbarga yuklardi. Qaror chiqarish, maslahatlar berish huquqini unga topshirib, o'zi chetlashdi. Yana bir qavm o'rdubegi bo'lib, sardori Qorabosh mirzo edi. Uning nomi keksalar qatorida tilga olindi. Keyingisi churos qavmi edi. Yetakchisi Munkabek bo'lib, jasurlikda tengi yo'q edi. Uning odamlari yuzdan oshardi.

Yana biri bekchik qavmi bo'lib, Mir Ayyub ular orasida eng mashhuri edi. Churas va bekchik qavmlari orasida ustunlik uchun ko'rashlar, kelishmovchiliklar bo'lardi. Kexsa amirlar yig'ilishib, shu masalani muhokama qilishdi. Oxir-oqibat, ustunlikni aniqlash har bir xon davrida o'sha xonning ixtiyori bilan amalga oshiriladi, degan qarorga kelishdi. Saidxon shunday farmon chiqardi: «Sizlarning oralaringizdagi ustunlikni endi men belgilamayman bu o'z qo'llaringda. Har yili bittangiz o'z afzalligini namoyish qilishi kerak. Kimki o'z jasorati bilan ajralib tursa, ustunlik o'shanga beriladi». Ular shu qarorda to'xtashdi, lekin bahslar haligacha davom etmokda va o'z yechimini topolmayapti. Tumachi, Sha'bon bahodir, To'xtaqli bahodir, O'zunsoqol va To'xta bahodirlar ham bor edi. Ular boyrin qavmining sardorlari bo'lib, obro'li, tajribali odamlar edi.

Navbatdagisi qaluchi qavmining yetakchisi Tuqon bahodir davrining eng hurmatli

lashkarboshilaridan edi. Keyingisi qorluk qavmining sardori Malik Ali bahodir jasur inson edi. Yana bittasi makrit qavmining yetakchisi Qulika bahodir, shunqorchi qavmining boshlig'i Umarshayx edi.»³⁸

“Tarixi Rashidiy”da jaloir qabilasi haqida quyidagi ma'lumotlar keltiriladi. Unda aytilishicha, Jaloirlar Amir Temurning harbiy yurishlarida qatnashganlar. Sohibqiron 1375-yil Mo'g'iliston (Sharqiy Turkiston va Yettisuv)ga harbiy yurish boshlaganda o'g'li Jahongirni manglay ilg'or qilib, yuboradi. Jahongirning qo'shini tarkibida jaloyirlar boshlig'i Bahrom nomli kishining o'g'li Odilo'hshoh ham bo'lgan. Otasining o'limidan sung Sohibqiron Odilshohni jaloyir qabilasiga boshliq qilib tayinlagan.³⁹

Rashididdin va Abulg'oziy ma'lumotlaridan aniqlanishicha jaloyirlarning ilk ajdodlari Onon daryosi havzalarida yashaganlar.⁴⁰ Ammo yirik olimlar V. V. Bartold,⁴¹ I. P. Petrushevskiy lar jaloyirlarni mo'g'ul tili xalq bo'lgan deydi. Tilshunos olim S.A. Amanjo'lov qator dalillar asosida jaloyirlarning asosiy negizi turklar bo'lgan degan xulosaga kelgan.⁴²

“Tarixi Rashidiy”da Sariq uyg'urlar haqida quyidagi ma'lumotlar mavjud “Xo'tan bilan Xitoy oralig'idagi Sariq uyg'ur deb nomlangan kofirlar ustiga g'azot qilmoqqa jazm qilishdi. Yorkanddan Xo'tangacha o'n ikki kunlik yo'l.”⁴³ Bu ma'lumotlarni S.E. Malov ham ta'kidlaydi.⁴⁴

«Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy»da ayrim faktlarni aynan bir xil, ayrimlarini bir ozgina farqlar bilan takrorlanganini ko'ramiz. Chunonchi, «Boburnoma»da Yunusxonning kenja o'g'li, Sulton Ahmadxon haqida yoziladiki: «Sulton Maxmudxondan kichigi Sulton Ahmadxon bo'lib, Olachaxon ismi bilan mashxur. Olachaxon deb atalishining sababi shundaki, aytishlaricha, kalmok, va mo'g'ul tilida kotilni «olachi» deydi. Kalmoklarni bir necha marta bosib, ko'plab

³⁸ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. ИШарқ. Т.2010.- Б. 422-42.

³⁹ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. ИШарқ.2010 . –Б.100.

³⁹ Рашид ад-дин. Сборник Летописей. М.-Л., 1952, Т.2 1, М.-Л., 1952, С.92-93;

⁴⁰ Абулғозий. Шажаראи турк. Т.1992, -Б. 42-43.

⁴¹ Бартолд В.В. Двенадцат лекций по истории турских народов Средней Азии. Соч. Т.В.С.173

⁴² Аманжұлов С.А. Вопросы диалектологии и истории казахского языка. Алма-ата. 1959. С.43-45.

⁴³ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. ИШарқ..2010. –Б.100.

⁴⁴ Малов С. Е. Язык желтих уйгуров. Алма-Ата, 1957. С.3

odamlarini qirgani uchun «Olachi» deyilaverib, iste'molda Olacha atalib ketgan».⁴⁵

«Tarixi Rashidiy»dan ayni ushbu ma'lumotlarning to'ldirilgan holatini o'qiymiz: Sulton Axmadxon «Bir necha marta qalmoqlarga qarshi muvaffaqiyatli xujumlar qildi, ulardan ko'pini o'ldirdi. Ikki marta Esan Toyshi bilan jang qilib, har ikkalasida g'olib bo'ldi. Qalmoqlar undan nixoyatda qurqishgan va uni Olachaxon deb atashgan. Bu - mo'g'ul tilida «Qotil xon» degan ma'noni beradi. Bu lakdb xonda umrbod qolgan, odamlar uni Olachaxon deyishgan. Xozir mo'g'ullar uni Sulton Ahmadxon deb, boshka qavmlar esa «Olachaxon» deyishadi.⁴⁶ Mirxond, Xondamir Xiraviy va boshkd tarixlarda «Olachaxon» deb yozishgan».

«Tarixi Rashidiy»da Xoja Ubaydullox Ahrorning Marg'ilonga Sulton ma'lumotlarda mo'g'ul xoni Yunusxon xususida bizga kerakli ma'lumotlar bor: «Yunusxon Eshonni kutib olishga yolg'iz bordi. Eshon yaqinlashganda xon otdan tushdi-da, otini bir joyga bog'lab qo'yib, la'l tovokday yuzini kora tuprokqa qo'yib turdi. Eshon xazratlari yaqinlashib kelganlarida Eshonning xonni taniydigan muridlaridan biri: «Mana shu Yunusxon bo'ladi» dedi. Eshon xazratlari iztirob bilan otdan tushib, xonning boshini yerdan ko'tarib, uni duo qildilar.

Eshon hazratlari Marg'ilonga kelganda aytgan ekanlar: «Men Yunusxonni mo'g'ul deb eshitgandim va mo'g'ullarni soqolsiz, qiliqdarini sahroyilardek tasavvur qilar edim. Ammo xonni ko'rganimda fikrim o'zgardi. U soqolli, xushmuomala, ochik, chexra kishi ekan. Bunday nazokatli va zukko muomalali kishi kam topiladi. Bunday kishi donishmand Mirzo Ulug'bekkacha va undan keyin xam bo'lmagan».

«Tarixi Rashidiy»da Chig'atoy so'zi matndagi o'rniga ko'ra turt ma'noda qo'llanadi: 1) ism, CHINGIZNING o'g'li; 2) Chig'atoydan tarkalgan mo'g'ul xonlari; 3) Chig'atoylar - temuriylar; 4) chig'atoylar - boburiylar.

Yapon olimi Eyji Mano Markaziy Osiyoninr XV-XVasrlarlari tarixini «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy» asosida yaratish mumkinliri tajribasini «Bobur va unint davri» nomli fundamental tadqiqotida isbotlab berdi. Biz esa bu tarjimamiz

⁴⁵ Захириддин Мухаммад Бобур.Бобоурнома.Т.2002.-Б.89.

⁴⁶ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. ИШарк.2010. –Б.37.

bilan ushbu mintaka axolisining tildosh, dildosh va madaniyatdosh xalkdar ekanligini tasavvur ettirish uchun, bu ikki asar bir-birining davomi degulik xulosaga keltirishga kumaklashdik, xolos.

“Tarixi Rashiliy“da Sharqiy Turkistonning siyosiy tarixiga oid, etnografiyasiga, geografiyasiga va Sharqiy Turkistonda hukmronlik qilgan sulolalar shajarasiga oid qimmatli ma'lumotlar mavjud. Umuman olganda “Tarixi Rashiliy “ asari Sharqiy Turkiston tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

III.BOB. MANBADA TIBET O‘LKASI VA AXOLISINING TASVIRI

III.1.Asarda Tibet o‘lkasiga oid ma’lumotlar tasnifi

Muhammad Haydar mirzoning «Tarixi Rashidiy» asarida Tibet haqida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi « biz Tibetni o‘zimiz bilganicha sharh va bayon qilishga jur’at etamiz. Tibetning hududi, ob- xavosi, rasm-rusumlarini ham bayon qilib o‘tish lozim. Chunki Tibet shunday yerda joylashganki, u yerga juda kam odamlarning qadami yetgan. Tibet yo‘llarining behad noqulayligidan tog‘lari, xavf-xatarlarga to‘la dovonlari tufayli, shuningdek, suv, yem- xashak, o‘tin kamligi, bosqinchilikni odatiy ish deb biladigan qaroqchilari tufayli u yoqlarga bironta sayohatchi bormagan va u yerlardagi ahvolni ham hech kim bilmaydi. Shu sababdan «Mu’jam al-buldon», «Jomi gitinamoy», «Mulhakoti suroh» va boshqa tarixiy kitoblarda o‘zga yurtlar singari Tibet keng tasvir etilmagan, ularning mualliflari Tibetni bir viloyat sifatida sanab o‘tishgan.»⁴⁷

Haqiqatdan ham, Muhammad Haydar mirzo ta’kidlaganidek Tibet avval bitilgan tarixiy asarlarda to‘liq tasvirlanmasdan bir o‘lka sifatida tilga olib o‘tiladi.chunki, «Tarixi Rashidiy»da aytilganidek Tibet hududi geografik jihatdan murakkab bo‘lib,u yerga borish qiyin bo‘lganligi uchun bo‘lsa kerak, u yer haqida ma’lumotlar kam lekin Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy”asarida yetarlicha ma’lumotlar keltirilgan.

“Tarixi Rashidiy” dagi Tibet o‘lkasiga oid ma’lumotlarni tasniflab chiqsak,Tibet geografiyasiga, tarixiga, etnografiyasiga, toponimikasiga, Tibet xo‘jaligiga oid ma’lumotlarni ko‘rish mumkin. Tibet geografiyasiga oid ma’lumot ya’ni, Tibet hududi “Tarixi Rashidiy”da quyidagicha tasvirlanadi.

“Tibat yerlari harob yerlardir. Tibet zamini Rikan Baidan to Bakanigacha o‘zunasiga cho‘zilib ketgan. Rikan Baid «shimol bilan g‘arbning oralig‘ida» degan ma’noni, Bakani esa «janub bilan sharg‘ning oralig‘ida» degan ma’noni bildiradi. Ikkovining oralig‘i sakkiz oylik, kengligi esa, salkam bir oylik yo‘l. Rikan Baid

⁴⁷ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. ИШарқ.2010.-Б.588-589.

tomondan Tibet chegarasi Balurga taqaladi, yuqorida uni tasvirlagan edik, Bakani tarafdin esa Xitoyning Kanjonfuy viloyatiga qarashli Xujuv va Salorgacha yetgan. Yuqorida, Qoshg'ar va Mo'g'uliston tog'lari sharhida eslatilganidek, barcha tog'lar Mo'g'uliston tog'idan boshlanib, Qoshg'arning shimolidan g'arbga tomon borib, janub tarafiga cho'zilib ketgan. Bayon qilingandek, Farg'ona viloyati Qoshg'arning g'arb tarafida joylashgan bo'lib, bu TOG' shu ikki viloyat o'rtasidadir, buni Oloy deyishadi. Yorkandning g'arbida Badaxshon joylashgan. Badaxshon bilan Yorkand oralig'idagi tog'larni Pomir deyishadi. Undagi mavzalar ayrim joylarda yetti-sakkiz kunlik yo'ldir. U yerlardan o'tib borilsa, Balurga tutashgan Yorkand TOG'lari etagiga, Rostkom, Tog'dumbosh degan joylarga yetib boriladi, u yerlardan ham o'tilgandan keyin. Tibet zamini boshlanadi. Badaxshon Yorkandning g'arbidai yozda kuyosh botadig'an tarafida, Kashmir esa Yorkandning g'arbida, qishda kuyosh botadigan tarafida joylashgan, ularning oralig'ida o'sha TOG' bor.

Yorkand bilan Kashmir o'rtasida Tibetga qarashli Balti viloyati bor. Baltida ham o'shanday tog'lar bo'lib, ular Oloy va Pomirdan kengrokdir, kengligi o'n ikki kunlik yo'ldir. Yorkand tarafdin chiqib keladigan dovonni Sonju, Kashmirda tushib boradiganini esa Ashkordu deyishadi. Sonju dovonidan Ashkordu dovonigacha masofa yigirma kunlik yo'ldir. Xutanning g'arbida, qishda quyosh botadigan tarafida Loxur, Sultonpur, Bajvora singari ayrim hind shaharlari joylashgan, ularning oralig'ida aytib o'tiltan TOG' bor. O'sha xind shaharlari bilan Xutan o'rtasida Tibetga tobe Ordak, Guyya, Aspati degan shaharlar mavjud, bu TOG' aftidan, Xitoygacha boradi. Ushbu TOG'NING g'arbiy va janubiy taraflarida Hindiston joylashtan; Bxira, Loxur, to Bangalagacha shu TOG' etaklarida joylashgan. Xindistondagi barcha daryolar shu tog'dan boshlanadi, u daryolarning boshi Tibatdadir. Tibatning shimoliy va sharqiy tarafida Yorkand, Xutan, Turfon, Lub, Katak, Sarik. Uyg'ur joylashgan, nariyogi sahro, uning chegarasi Xitoyning Komju shaxri va Sukjuy voxasiga tutashib ketgan. Tibet tolaridan g'arb va janub tomonlarga oqib tushgan suvlar Xindiston daryolarini xosil qiladi, Nilob, Bxira, Chanob, Loxur, Sultonpur, Bajvora singari daryolar borib Sind, Jun, Gang daryolariga kuyiladi. Bu daryolar Bangala orkdli o'tib, Xind ummoniga kuyiladi. Tibet tog'laridan sharqiy va

shimoliy yunalishda oqib to‘shadigan Yorkand, Qoraqosh, Turfon daryolarining hammasi Kuknodirga quyiladi, Kuknodir bu sahrodagi kul, bu xaqda to‘xtaldik. O‘sha kulni ko‘rgan mo‘g‘ullardan eshitganim borki, uni uch oyda aylanib chikish mumkin. Uning narigi tarafidan katta daryo okib chikads, bu Xitoyning Koramuron daryosidir. Demak, Tibet juda balandda joylashgan bo‘lib, barcha tomonlarga okadigan daryolar uning suvlaridan hosil bo‘lgan. Tibetga kaysi tarafdin borilmasin baland dovonlarga kutarilishga to‘g‘ri keladi, u dovonlardan tushish yuli yo‘k. Dovonning tepasiga chikilsa, uning tepasi tep-tekis, ayrim dovonlarninggina uncha-muncha yonbag‘irlari bor. Yukorida joylashgani uchun Tibetning havosi sovuk; ko‘p joylarida arpa va sholg‘omdan bo‘lak ekin ekishmaydi. Arpasi ham ko‘pincha kirk, kun ichida pishadi, agar shu muddatda pishib yetilmasa, sovuk urib, doni puch bo‘lib koladi. Tibetning ko‘p yerlarida o‘tlar ikki oygina yashil bo‘ladi, shunday joylari borki, yoz bor-yug‘i kirk. kun davom etadi. Shuning uchun ham ba‘zan kechaning ikkinchi yarmida ariklardagi suvlar mo‘zlaydi. Tibetda xavoning haddan tashkari sovukligidan daraxtlar ham, hatto o‘t-ulanlar ham baland bo‘lib o‘smaydi. Tibetliklar sigir va qutoslar go‘ngini tappi-tezak, ya‘ni o‘tin qilishadi.”⁴⁸

“Tarixi Rashidiy”dagi ushbu ma‘lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak haqiqatdan ham Tibet hududi mukammal tasvirlangan. Shuningdek, Tibet hududi bilan chegaradosh bo‘lgan mintaqalar shaharlar xususan Balur, Xitoyning Kanjonfuy viloyatiga qarashli Xujun va Salor, Qoshg‘ar, Farg‘ona viloyati Yorkand, Badaxshon, Kashmir, Xo‘tan, Loxur, Sul-tonpur, Ordak, guiya, Aspati, Turfon, Lub, Katak, Sariq Uyg‘ur, Xitoyning Komju shahri, Sokjuy vohasi, kabi shaharlar ham tasvirlab o‘tilgan. Bundan tashqari Qashg‘ar va Mo‘g‘uliston tog‘lari, Oloy Pomir tog‘lari, Nilob, Bxira, Chanob, Loxur, Sul-tonpur, Bajvora, Sind, Jun, Gang singari daryolar batafsil tasvirlab berilgan.

“Tarixi Rashidiy” Tibet etnografiyasiga oid bo‘lgan ma‘lumotlar ya‘ni, Tibetda yashaydigan xalqlar ularning turmush-tarzi, madaniyati, urf-odat ap‘analari, diniy e‘tiqodi quyidagicha tasvirlanadi.

⁴⁸ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. ИШарк, 2010. –Б.588-589.

“Tibat xalki ikki toifaga bo‘linadi: biri «jampa», ya’ni «sahroyilar». Ikkinchisi «yulpa», ya’ni «qishloqda yashovchilar», Sahro xalki albatta Tibatdagi birorta kal’aga tobe bo‘ladi. Tibatdagi ko‘chmanchi xalkning yashash tarzi, odatlari g‘alati, boshka biror xalqnika o‘xshamaydi. Birinchisi: go‘shni va har kanday boshka ovkatni xom holida yeydi, pishirmaydi. Ikkinchisi: otlariga don o‘rniga go‘sh berishadi. Uchinchisi: Og‘ir yuklarni qo‘ylarga yuklashadi, har bir kuy o‘n ikki man (10 kg.) yukni ko‘taradi. Ular xurjo‘n tikishib, qo‘ylarga ayil, quyushqon bog‘lashadi-da, xurjunni ustiga ortib qo‘yishadi, kerak bo‘lsagina olishadi, bo‘lmasa yozin-qishin ular qo‘yning ustida turaveradi.

«Jampa», ya’ni sahro xalki qishda TOG‘NING XINDISTON JOYlashgan g‘arbiy va sharqiy tarafiga tushib, u yerlarga xitoyi mollarni, Tibat to‘zi, charm, darmana tomiri, QOG‘OZ, tilla va shol rumollarni olib borib, Xindistonning TORLI o‘lkalaridagi xindilarga sotishadi va Xindistondan qo‘ylarga ortib, kiyim kechak, shirinliklar, guruch, bug‘doy kabi narsalarni baxorda Tibatga olib kelishadi. Shoshilmay, yo‘llarda qo‘ylarni o‘tlatib, qishga yaqin Xitoyga yetib kelishadi. Xind va Tibat mollarni Xitoyda almashtirishadi. Baxorda Xitoy mollarni qo‘ylarga yuklab Tibatga kelishadi, kelgusi qishda Xindistonga kelishadi. Xitoyda kuylarga ortilgan yukni Hindistonda tushirishadi, Hindistonda ortilgan yukni Xitoyda tushirishadi. Shu taxlit ular bir kish Xindistonda bo‘lishsa, ikkinchi qish Xitoyda bo‘lishadi. Barcha jampalarning xayoti shu taxlit kechadi. Shunday paytlar bo‘ladiki, jampa ikki mingtagacha qo‘ylarga narsa yuklashadi, har bir qo‘y ustida o‘n ikki mangacha yuk bo‘ladi, mana, qanchalik ko‘p molni olib yurishadi! O‘sha mollarni bir yil Hindistonda, ikkinchi yil Xitoyda yuklashadi. Kaerga borishmasin, shuncha yuk bilan mexnat-mashakkatsiz ketaverishadi. Bunaka odat birorta boshka xalkda uchramaydi, hatto ko‘plar bu gapga ishonmaydi.”⁴⁹

Haqiqatdan ham Tibet xalqiga xos bo‘lgan bunday turmush-tarzi boshqa xalqlarda uchramaydi. Biz yuqorida keltirilgan ushbu ma’lumotlardan shuni bilishimiz mumkinki tibetliklar qadimga davrlardan boshlab Tibet sharoitlariga

⁴⁹ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. II. Шарқ, 2010. –Б.590.

moslashgan holda kun kechirib, yashab kelishmoqda. Muhammad Haydar mirzo Sulton Saidxonning saltanatidagi yetakchi davlat arbobi sifatida xizmat qildi. Eng muhim harbiy yurishlar bosh qo'mondoni ham Haydar mirzo edi. Badaxshon, Kofiriston, Tibet, Ladak, Kashmir yurishlari shular jumlasidandir. Muallif kayd etganidek, Sulton Saidxon xayotligida hamisha birga bo'ldi. Oxirgi paytda Sulton Saidxon Muhammad Haydar mirzoni Tibetga - Ursangdagi ibodatxonani vayron qilib kelishga jo'natdi va o'zi Koyutarga kaytayotganida, yulda nafas kisilish kasalligidan vafot etdi., Sulton Saidxonning Tibetga yurishini quyidagicha tasvirlaydi.

“Islom dinining arkon va axdom ruknlarini mustaxkamlashda razot aloxida urin tutadi. Razotning farz ekanligi Qur'oni karim oxam anik, mos keladi. Har bir ibodatning savobi riyozatning xaqiqiyligi, nafsning halol bo'lishi va xayrli amallarning mikdori bilan o'lchanadi.

Islom dinini muhofaza qilishda va yoyishda g'azotning ahamiyati shu darajadaki, boshqa birorta dinda bunday hukm yuk;. Islom dinining afzalligi shundaki, g'azot qilmoq faqatgina Muhammad payg'ambarning diniy mazhabiga xosdir. Agar u avval o'tgan diniy mazhablarda va xalqlarda bo'lsa ham, ammo bunday ko'rinishda bo'lmagan. Garchi ular ba'zi-ba'zida **g'azot** qilgan bo'lsalarda, biroq kofirlarning biron narsasini olishmagan, bu halol hisoblanmagan, faqat qon to'kishgan, xolos. Abadiyat dargohining jonkuyar oshiklari va yagonalik borgohining eng yaqin fidoyilari baxt-saodatga eltuvchi tojni xuddi kelinlarni bezatuvchi tillakoshdek ixlos peshanalariga qo'yib, haqiqiy mag'lubga - Alloxga yuzlanganlar, shu alfozda sobitdirlar. O'zlarining aziz jonlarini ana shu orzu evaziga ayirbosh qiladilar. Bunday ayirbosh qilishni oliy matlablari deb biladilar.

Nazm:

Do 'st visolin jon bahosida agarda sotsalar,

Joni bor har bir kishi bo 'lgay haridoring sening.

Bunday muqaddimadan maksad shuki, xon tavba-tazarru qilish sharafiga erishganidan keyin o'zi g'azot qilmoqni orzu qilib yurardi. Garchi u har yili g'azotga lashkar jo'natgan bo'lsa-da, bunday xayrli amalni o'zi bajarish istagi unda

xech bir sunmadi. Nihoyat, 938 yil zulxijja (1532 yil iyul) oyida u Tibetga g'azotga ketdi.

Tibet tasvirida aytib utilgandek, Tibetning shimoliy chegarasi Balti viloyati bo'lib, uning oxiri Balur va Badaxshonga borib taqaladi. Uning qishki kunchiqish tarafida Yorkand, Fap6 tarafiga Kashmir joylashgan.

Xon menga Iskandar sultonni qo'shib, Tibet yurishiga yubordi, o'zi esa Xutan yo'li bilan Dulpa deb ataladigan Oltunchi Tibet sari yuzlandi.⁵⁰

Ushbu ma'lumotdan ham ko'rinib turibdiki, Tibet hududiga yurish Muhammad Haydar mirzoning o'zi bevosita ishtiroe etgan, va Tibetda bo'lib, janglarda ishtirok etgan. Bu haqda muallaif quyidagi ma'lumotlarni keltiradi.

“Men fakir o'sha 938 yil zulhijja oyining oxirida (1532 yil 2 avgustda) yurishni boshlab, safar oyining boshida (21 sentyabrda) Tibetga tobe' viloyatlardan Nubraga yetib keldim. Shu atrofdagi hamma yerlarga kishi yuborib, umumiy chaqiriq bilan buysunishga da'vat qildik.

Nazm:

Barcha elni sulhga chorlar Ahmad dini,

Baxtlidir, kim dindan olsa nasibini.

Ularning ko'pchiligi itoat qilib, buysunishdi, fakat Nubraning ulug'lari qaysarlik qilib, buysunishni istashmadi va har biri o'z qal'asiga bekinib oldi. Nubra amaldorlarining eng kattasi Bur Qapo degan kofir o'sha viloyatning bosh Xundar qal'asiga bekindi. Fakir o'sha qal'ani qamal qildim. Bir necha kun qamal qilish qurol-aslahalarini tayyorlatdim, belgilangan kun yetib kelgach, qal'aga qarab yurdik. Islomning besh rukni guyo kofirlarning qullarini qayirib bog'ladi va ularning orasida tartibsizlik boshlandi, Qur'oni karimda aytilganidek, «Yana ayting: Haqiqat (ya'ni Islom) keldi va botil (ya'ni kufr) uchib-yukoldi. Chunki botil yukoluvchi narsadir» (17.81). Kofirlar qal'ani tashlab, har tarafga tarqalib, g'oyib bo'lishdi. Musulmonlar iloji boricha izlaridan quvib borishdi, asir olib kelishdi va o'sha yuldan adashgan qavmdagi erkak zotidan biror kishi ham omon qolmadi...

⁵⁰ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. II. Шарқ, 2010.-Б596- 597.

Qarshilik ko'rsatishga hech kimda majol qolmadi. Nubra viloyati butkul ishg'ol qilindi, qal'alariga lashkarlarimizni olib kirib, batamom o'rnashdik. Undan keyin biz Moryul qal'asiga keldik. Moryulda ik-kita hokim bor edi: biri Lata Jug'don, ikkinchisi Toshnikun. Ularning ikkovlari ham darrov bizga tobe' bo'lishdi. Bu paytda quyosh mezon burjiga kirgan edi. Mezonda butun Tibatda sovuq, zaptiga oladi. Holbuki bu faslda (sentabr-oktyabrda) bu yerlarga nisbatan eng issik. kunlar bo'ladi. Shu yurishda birga kelgan amirlar bilan qishlaydigan yerning maslahatini qildik, Tibatning biror yerida qishda otlarga yem-xashak, odamlarga yegulik narsalar topiladigan joy bor-yuqligi bilan qiziqdik. *Hech* kim bunday joyni ko'rsatolmadi.

Qishni Kashmirda o'tkazishga kelishdik. Agar Kashmirni zabt etishga muvaffak, bo'lolsak - nur ustiga nur, bo'lmasa, qishni o'tkazamizda, bahorda ketamiz. Shu qarorga kelganimizdan keyin, jangchilar sonini ko'paytirish uchun o'zimizga Tibat lashkarini ham qo'shib, Moryuldan jo'nadik. Bu orada Sulton Saidxonning ishonchli mulozimlaridan biri Abdol Quli yasovul kelib, xonning shu yokda kelganligini xabar qildi, lekin kofirlar yurtiga xos kasallik damqismaga yulqib, salomatligi yomonlashipti, men faqir bandani iloji boricha tezrok ko'rmokchi emish. Shu zahotiyok, lashkarni qoldirib, o'zim xon qoshiga ketdim va diydorlashish sharafiga erishdim.”⁵¹

Muhammad Haydar mirzo Tibetda yuz bergan voqevalarni batafsil va sodda tilda bayon qilib, Tibetga yurish sabablarini ham bayon qilgan.

“Tarixi Rashidiy”da Sulton Saidxonning Muhammad Haydar mirzo izidan Tibetga kelib, baltiga yurishi va Muhammad Haydar mirzoning Kashmirga ketishi quyidagicha bayon qilingan.

“Yukorida eslatib o'tilgandek, Sulton Saidxon Xutan orkali Dulpaga borishga qaror qilib, faqirni Baltiga jo'natgan paytda to'rtinchi osmonning hukmdori quyosh asad burjida edi. Xon Xutan tog'lari va yaylovlari orkali bir oy yo'l bosib o'tguncha sunbula burji boshlandi. Bu yerlarga avval ham kelgan

⁵¹ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. И. Шарқ, 2010. –Б 598- 599.

odamlar, xadema y ariq, va daryolardagi suvlar muzlaydi, suv topish mushkul bo'ladi, vakti o'tkazib yubordik, deb xonga arz qilishdi. Muzni eritish uchun o'tin topish, qo'yu otlarni sug'orish ham amri mahol, ovkat pishirishga yetadigan darajada qutos tezaklarini g'amlashga ham kqp mexnat qilish kerak. Shunday qiyinchiliklar tufayli bungacha qancha lashkarlar shu yo'llarda otsiz qolib ketishgan. Ahvol xonga ma'lum bo'lgach, u «g'azot qilish niyatidan qaytish savobi azimdan mahrum bo'lishga sabab bo'ladi. Agar bu yo'ldan yurish qiyin va xatarli bo'lsa, unda Mirzo Haydar ketgan yo'ldan boraylik, u bilan birgalikda g'azavotni oxiriga yetkazaylik», - dedi. Shu bilan Xutandan qaytib, men fakir kelgan yo'l bilan jo'nadi. Yo'lda xonning muborak salomatligi damkisma tufayli shu darajada yomonlashdiki, necha kunlab bexush bo'lib, hayoti qil ustida qoldi. Tabiblar nafasni ochadigan, ichni yumshatadigan dori-darmonlar bilan muolaja qilishganda, bir oz yengil tortib, o'ziga kelar, keyin yana xushini yukotardi. Shunday paytda u amirlar va davlat a'yonlariga aytgan: «Garchi qazot qilmoqqa quvvatim yetmagan bo'lsada, ammo bu yo'ldagi maqsad va niyatlarimizga nuqson yetmasin. Bordi-yu, oxiri tiriklar safidan ketib, marhumlar qatoriga qo'shilsam, Iloho, men g'azot yo'lida o'lganlar qatorida bo'lay. Toki men nafas olayotgan ekanman, sizlar, g'azot qilmoq. niyatidan voz kechmay, meni dushman tarafga olib boraveringlar, agar menda xayot asari qolmasa, unda nima xohlasanglar shuni qilinglar». U o'sha tushkun kayfiyatda axvolini aks ettiruvchi she'rni o'qigan. Mana o'sha she'rdan bir bayt:

Ramaqda jon holimda ham seni ko'rgim keladi,

Kela qolgin, jonim - tuhfam, seni ko'rgim keladi.

O'sha kunlari necha martalab hushiga kelgan bo'lsa, tinmay shu ma'nodagi she'rlarni takrorlagan. Qizig'i shuki, xon shuncha og'ir ahvolda bo'lsa ham, xech qaerda to'xtashmagan. Agar, aytaylik, suv taqchilligi, havoning yomonligi, yem-xashak kamligi tufaylimi to'xtashsa edi, xonning kasali og'irlashuviga sabab bo'lardi. Bu kasallikdan qutulishning yagona yo'li nafas qisilishi kamroq, yuz beradigan joyga yetib olishdir. Nafas qisshi kam bo'ladigan joylarda bu kasallik ham kam uchraydi. Har xolda, xonni nafas qisish hollari kam uchraydigan joygacha

bir amallab yetkazishdi. Xon hushiga keldi, ayni shu kuni men faqir xonning huzuriga keldim. O‘zaro qo‘l olishib, quchoqlashib ko‘rishganimizdan keyin xonning ko‘ngli buzilib: «Na dustlarim, na farzandlarim, sendan o‘zga hech kim yodimga kelmadi, fakdg seni ko‘rish orzusida edim, Alloxga shukurki, seni ko‘rdim. Ortiq, hech bir istak yuk, menda», deb mana bu baytni o‘qidi:

Yetsa o‘lim darakchisi omonatni olgani,

Viz O‘zidan keldik, shaymiz Unga qaytib borgani.

Shu kundan boshlab, soat sayin xonning SOG‘LIGI yaxshilanib, tabiatiga kuvvat yuzlana boshladi, u Nubra qal‘asiga yetganda muborak ahvol-ruxiyasi to‘liq. o‘ziga keldi va u omad oyog‘ini baxt-iqbol uzangisiga qo‘yib, ot ustida Nubraga kirib bordi. Shundan sung amirlar maslahatga to‘planishdi. Har biri xonga o‘z fikrini bayon qildi. Men faqir quyidagilarni aytdim: «Bizga ma‘lum bo‘lishicha, bu atroflarda mingdan ortik kishi qishlasa bo‘ladigan joy yuk,, ming kishida isyonlarga qarshi tura oladigan imkoniyat yuk,. Katta lashkarining Kashmirdan o‘zga joyda tura olishini xech kim maslahat bermayapti, ammo Kashmir yulida tog‘- dovonlar ko‘p bo‘lganligi bois bunday yo‘llardan o‘tishga muxtaram xonning quvvatlari yetmasa kerak. Agar hazrati oliylari rozi bo‘lsalar, ular ming kishining xamroxligida omon-eson, shod-xurramlikda baxt-iqbol tizginini Balti tomonga bursalar, chunki Baltida tog‘-dovonlar xam yo‘k, nafas qisish hollari xam bo‘lmaydi. Men faqirga esa qolgan lashkar bilan qishni o‘tkazmoq, uchun Kashmirga yo‘l olishga ijozat bersalar, erta bahorda vaziyat nimani talab qilsa, bajaraman».Xon barcha takliflar ichida mening fikrimni ma‘qulladi va shu qarorga rozi bo‘ldi. Tibetga jo‘nash oldidanok, u yerda katta lashkar uchun joy yuligi ma‘lum edi, besh ming kishidan ikki mingtasi ixtiyorimga berilgan edi. O‘sha uch ming kishidan xon mingtasini o‘zi bilan olib Baltiga ketdi, to‘rt ming kishini menga berdi, men Kashmirga yo‘l oldim. Xon menga hamroh. qilib Mir Doim Alini, Bobo Sarik, mirzoni va bir necha e‘tiborli odamlarini ham jo‘natdi.»⁵²

“Tarixi Rashidiy”dagi ushbu ma‘lumotlarni o‘qir ekanmiz Muhammad

⁵² Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. И. Шарк, 2010 -Б.600.

Haydar mirzoning Sulton Saidxon dargohida alohida nufuzga ega bo'lganligiga yana bir bor amin bo'lamiz. Haqiqatdan ham sulton Saidxonning Tibetga yurishida alohida jonbozlik ko'rsatgan.

“Tarixi Rashidiy”da Sulton Saidxonning Baltiga yurishi va u yerda yuz bergan voqealar quyidagicha bayon etiladi.

“938 yilning mezon oyi (1532 yil sentyabr-oktyabr)ning oxirida xon Baltiga yetib keldi. Baltining sardorlaridan Baxrom Jav itoat xalqasini bo'yniga ilib, xon taxtining poyini o'pish baxtiga muyassar bo'lishga shoshildi. Baltining boshkd sardorlari kofirlar va dushmanlar odaticha buysunishni xohlashmadi. Dastlab xon Baxrom Jav yordamida butun Baltining poytaxti Shigar qal'asini zurlik bilan zabt etdi... Bundan tanqari, lashkarining qo'li o'sha tog'li viloyatlarning qaeriga yetsa, hamma joy egallandi. Kdl'alari mustadkam joylarga ajal qo'li yetmay, omon qolishdi.

O'sha qishda qor behad ko'p yoqqanidan Kashmir bilan xech bir aloqa bo'lmadi, qaysar kofirlar ichiqoralik qilib ataylab yolg'on ma'lumotlar berishdi. Shu sababli xon va qul ostidagi lashkar g'am-qayg'u girdobida bo'lishdi. Nihoyat ish oxirlaganda Kashmirdan chopar kelib, g'alaba xakida xabar yetkazgandan g'am-alam shodlik bilan almashdi. Barcha lashkar tantana bilan tinmay Qur'oni karimning Bizlardan g'amqayg'uni ketkazgan zot –Allohga hadu sano bo'lsin”(35.35)tinmay takrorlashardi.”⁵³

Umuman olganda Muhammad Haydar mirzoning “Tarixi Rashidiy”asarida Tibet o'lkasiga oid juda ko'plab qimmatli ma'lumotlar mavjud.”Tarixi Rashidiy”asari o'rta asrlardagi Tibet tarixini Tibet xalqi madaniyatini.urf-odat an'analari,diniy e'tiqodini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

III.2. Asarda Tibet aholisining etnografiyasiga oid ma'lumotlar.

“Tarixi Rashidiy” Tibet etnografiyasiga oid bo'lgan ma'lumotlar ya'ni, Tibetda yashaydigan halqlar ularning turmush-tarzi ,madaniyati , urf-odat an'analari, diniy e'tiqodi quyidagicha tasvirlanadi.

⁵³ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. И. Шарқ,2010.-Б. 600.

“Tibat xalki ikki toifaga bo‘linadi: biri «jampa», ya’ni «sahroyilar». Ikkinchisi «yulpa», ya’ni «qishloqda yashovchilar», Sahro halki albatta Tibatdagi birorta kal’aga tobe bo‘ladi. Tibatdagi ko‘chmanchi halqning yashash tarzi, odatlari g‘alati, boshqa biror halqnikiga o‘xshamaydi. Birinchisi: go‘shni va har qanday boshqa ovqatni xom holida yeydi, pishirmaydi. Ikkinchisi: otlariga don o‘rniga go‘sh berishadi. Uchinchisi: Og‘ir yuklarni qo‘ylarga yuklashadi, har bir qo‘y o‘n ikki man (10 kg.) yukni ko‘taradi. Ular xurjo‘n tikishib, qo‘ylarga ayil, quyushqon bog‘lashadi-da, xurjunni ustiga ortib qo‘yishadi, kerak bo‘lsagina olishadi, bo‘lmasa yozin-qishin ular qo‘yning ustida turaveradi.«Jampa», ya’ni sahro halqi qishda TOG‘NING XINDISTON JOY lashgan g‘arbiy va sharqiy tarafiga tushib, u yerlarga xitoyi mollarni, Tibat tuzi, charm, darmana tomiri, QOG‘OZ, tilla va shol rumollarni olib borib, Hindistonning TURLI o‘lkalaridagi hindilarga sotishadi va Hindistondan qo‘ylarga ortib, kiyim- kechak, shirinliklar, guruch, bug‘doy kabi narsalarni bahorda Tibatga olib kelishadi. Shoshilmay, yo‘llarda qo‘ylarni o‘tlatib, qishga yaqin Xitoyga yetib kelishadi.

Xind va Tibat mollarini Xitoyda almashtirishadi. Bahorda Xitoy mollarini qo‘ylarga yuklab Tibatga kelishadi, kelgusi qishda Hindistonga kelishadi. Xitoyda qo‘ylarga ortilgan yukni Hindistonda tushirishadi, Hindistonda ortilgan yukni Xitoyda tushirishadi. Shu taxlit ular bir qish Hindistonda bo‘lishsa, ikkinchi qish Xitoyda bo‘lishadi. Barcha jampalarning hayoti shu taxlit kechadi. Shunday paytlar bo‘ladiki, jampa ikki mingtagacha qo‘ylarga narsa yuklashadi, har bir qo‘y ustida o‘n ikki mangacha yuk bo‘ladi, mana, qanchalik ko‘p molni olib yurishadi! O‘sha mollarni bir yil Hindistonda, ikkinchi yil Xitoyda yuklashadi. Qaerga borishmasin, shuncha yuk bilan mehnat-mashakkatsiz ketaverishadi. Bunaqa odat birorta boshka xalkda uchramaydi, hatto ko‘plar bu gapga ishonmaydi.

Jampa - ko‘p sonli halq. «Dulpa» deb nomlangan bir qavmida ellik mingdan ortik, oila bor. Shunga o‘xshagan qavmlar ko‘p; ularning ulug‘ odamlaridan,

Qavm ahllarining sonini bilishga qiziqdim, aniq javob berisholmadi tag‘in ham Alloh biladi. qishloq, aholisiga kelsak, ularni «yulpa» deyishadi. Ular Tibat

viloyatidan Baltida istiqomat qilishadi.”⁵⁴

Haqiqatdan ham Tibet xalqiga xos boʻlgan bunday turmush-tarzi boshqa halqlarda uchramaydi. Biz yuqorida keltirilgan ushbu maʼlumotlardan shuni bilishimiz mumkinki, tibetliklar qadimgi davrlardan boshlab Tibet sharoitlariga moslashgan holda kun kechirib, yashab kelishmoqda.

Bundan tashqari “Tarixi Rashidiy” Tibet hududida joylashgan shaharlar va unda yashaydigan aholi haqida quyidagi maʼlumotlar keltiriladi.”Balti, Burik, Xolula, Ashigar, Ashkordu, Lodaks, Rudak singari kentlarni birlashtirgan boʻlib, ularning har birida qalʼa va qishloqlar bor. Tibatning yoʻlimda uchragan koʻpchilik viloyatlarini kuch bilan egalladim yoki ular bilan sulh tuzib, juzya toʻlashga majbur qildim, Baltining ayrim kentlarini ov qilib yurganimda koʻrdim: Moryul, Paduk, Gula, Ludubors, Zunka, Maskob, Darsutoʻz, Konkori, Zirsu, Nison, ham, Olalay, Lutuk, Tuk, Lobuk singari kentlar, Askabrak kenti sayohatimning oxirgi manzili boʻldi. Askabrakdan Bangalagacha yigirma toʻrt kunlik yoʻl, Ursang Askabrakning sharqida joylashgan, Bangala esa janubida, Ursang butun Xitoy bilan Tibatning qiblagoxidir. Ursangda bitta katta butxona bor, u xaqda eshitgan narsalarimga ishonish qiyin, shu sababli bular haqida yozmadim, bu gaplarda rostdan koʻra yolgʻon koʻprok.

Qisqasi, bu yer Xitoy va Tibatning ilm va taqvodorlik uchogʻidir. Tibatning men koʻrgan viloyatlari va u yerlarning xalqi shunaqaki, ularni tasvirlashga qancha urinmayin, qoʻlimdan hech narsa kelmadi. biroq koʻzim bilan koʻrgan yoki eshitganlirim gʻaroyib narsalarni gʻayritabiiyligi tufayli tasvir etaman. Ulardan biri - oltin konlaridir. Jampa yashaydigan koʻplab joylarda oltin konlari mavjud, ular orasida ikki tasi gʻaroyibdir: birini murullar «Oltunchi Tibat» («Oltin; yetkazuvchi Tibat») deb atashadi, bu yerda aytib oʻtilgan dulpa: qavmining bir qismi ishlaydi. U yerlarning ob-xavosi bexad! sovuqligidan bir yilda qirq, kundan ortiq, ishlab boʻlmaydi. Tekis yerlarda chuqur zovlar qilingan, ular shunday qilinganki, u yerlarda odam yura oladi. Bunday zovlar koʻp; biri ikkinchisiga ulanib ketgan.

⁵⁴ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. II. Шарқ, 2010.-Б590.

Aytishlaricha, uch yuzta oila ana shunday zovlarda jon saqlasharkan. Gohida mo'g'ullar u yerlardan o'tadigan bo'lishsa, ular o'zoqdan odamlarni ko'rib, ular yaqinlashishsa, zovlarga yashirinib olishadi, shunda ularni hech kim topolmaydi. O'sha zovlarning ichida qundo'z moyi aralashtirilmagan sof ko'y moyidan boshka moy yonmaydi. Odamlar o'sha zovu rdan tuproqni olib chiqishib, suvda yuvishadiki, bu gapning to'g'riligiga kafolat bermayman. Aytishadiki, o'sha konning bir g'alvir tuprog'idan o'n misqol oltin chiqarmish. Bitta odam yakka o'zi yer kovlaydi, tashqariga olib chiqadi, uni yuvadi, bir kunda yigirma g'alvir tuproqni yuvadi. Garchi bunga ishonish qiyin bo'lsa-da, bu gapni men ko'plab tibatlilardan eshitdimki, hammalari bir ovozdan buni ma'qullab gapirishdi, shuning uchun yozdim. Yana bir g'aroyib narsa shuki, Guyya mavzesida ikki yuzta qal'a va qishloq bor; uning hududi uch kunlik yul, Guyyaning hamma yerida oltin bor. Istagan joyni kovlab, tuprogini g'alvirdan o'tkazilsa, oltin chiqadi. Uning eng kichik bo'lagi nuxotdek yoki moshdek keladi, ba'zan katta bo'laklari ham, masalan, qo'yning jigaridek keladigani ham uchraydi. Men Guyya axolisiga jo'zya solig'i solganimda, u yerning oqsoqollari aytib ;berim'diki, yaqinda bir odam yer xaydayotsa, bir joyda omoch nimagadir ilinib qolipti, qancha harakat kilmasin, omochni tortib ololmapti. Uning atrofini qazib, omochning katta toshga botganini kuripti-da, o'sha odam uni shundok, koldirib, xokimga xabar qilipti. Birgalikda borishib, toshni chiqarib olishipti, uni sindirib, ichidan bir yarim ming Tibet misqolida toza oltin olishipti. *Har bir* Tibet misqoli odatdagi misqolning bir yarim minga tengdir. Alloh Guyya oltinini shunday yaratganki, u deyarli kamaymaydi - fakat olov ta'sirida ozroq kichrayadi, xolos. Mana shularning barisi g'aroyibotlar sirasiga kiradi. Bu oltinni yaxshi biladigan odamlar uchun ham g'aroyib tuyuladi - ular yer yuzining biror joyida bunakasini ko'rishmagan.

Tibetning ko'pgina mavzalarida Xitoy va Hindistondan keltirilgan gaz lama - matolar birdek uchraydi. Tibetning g'aroyib hodisalaridan yana biri nafas qisish kasalligidir, mo'g'ullar buniis» deyimadi. Tibetning 6archa viloyatlarida bu hodisa ko'zga tashlanadi, lekin qal'a va qishloqlar bo'lgan joylarda bu kamrok, uchraydi. Nafas qisish holati har qanday odam uchun ham juda yoqimsiz.

Odamning nafasi shu qadar qisadiki, beli shu qadar achishadiki, go‘yo u og‘ir yuk bilan baland toqqa o‘zoq, muddat yugurib chiqqandek tuyuladi.. Agar kasallik zo‘rayib ketsa, bemor xushidan ketadi, alahsiraydi, gohida biror og‘iz so‘z aytishga majoli yetmaydi, yuzi, ko‘l-oyoqlari shishib ketadi. Shunday holatlar yuz berganda, bemor tong bilan choshgoh oraliq‘ida o‘ladi. Ba‘zan esa bunday holat bir necha kunga cho‘zilsa va shu muddat ichida o‘lib qolmasa, bir amallab qal’a yoki qishloqqa yetib olsa, ehtimol, yashab qolishi mumkin, aks holda albatta o‘ladi. Bu kasallikdan Tibet aholisi qiynalmaydi, Tibet aholisi bu kasallik haqida bilishmaydi ham, ularning tabiblari ham nega bu kasallik tibatlilik bo‘lmagan odamlarda uchrashini bilmaydi. Havo sovugan sari bu kasallik ko‘prok xuruj kiladi. Bu kasallikni qanday davolashni ham xech kim bilmaydi. Bu kasallik otlarda ham uchraydi, tezda bu hususda to‘xtalamiz.. Bir kechaning o‘zida ikki mingta ot o‘lipti.»⁵⁵.

Shunday qilib Tibet aholisining turmush tarziga oid ushbu ma’lumotlar o‘rta asr manbalarida unchalik aniq va mukammal yozilmagan Muhammad Haydar Mirzoning “Tarixi Rashidiy ” asarida esa Tibet halqining turmush-tarziga oid qimmatli ma’lumotlar aniq va holisona bayon etilgan. Shu o‘rinda ta’kidlab o‘tish joizki muallif Tibet aholisi turmush-tarzi , madaniyati ,urf-odatlari haqida yozayotganda malumotlarning to‘g‘ri va ishonchliligiga alohida ahamiyat bergan. Buni biz yuqorida keltirib o‘tilgan ma’lumotlarda isbotini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari Tibet halqi to‘g‘risida keltirib o‘tilgan ma’lumotlar qandaydir qiziqarli va g‘ayritabiiy hususiyatlari bilan ham odamni o‘ziga tortadi.

Tibet halqiga oid yana bir qiziq ma’lumotlarni Tibet halqining diniy qarashlariga oid ma’lumotlarda ham uchratishimiz mumkin. “Tarixi Rashidiy”da Tibet halqining diniy qarashlari haqida quyidagi ma’lumotlar bayon etilgan.

Muhammad Haydar mirzo «Tarixi Rashidiy» asarida Tibet aholisining diniy qarashlari haqida quyidagi ma’lumotlarni «Tibatda ruxoniyni umumiy nom bilan lama deb atashadi, ammo har bir olimni bilim darajasiga qarab tibatliliklar har xil nomlar bilan atashadi. Aytaylik, bizning «imom va «mujtahid»ni ular «tungaba» va

⁵⁵ Мухаммад Хайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. И. Шарқ, 2010. –Б. 603.

«kabchura» deyishadi. Men ular bilan tarjimon orkali ko‘p gaplashdim. Gap masalaning nozik jihatlariga borib taqalganda, tarjimon ularni tushunish va tushuntirib berishga qiynalgandan, suhbatlarimiz poyoniga yetmay qolardi. Ularning diniy qarashlari haqida kuyidagilarni bilib oldim: tushunchalariga ko‘ra azaldan mavjud bo‘lgan Alloh, taolo dunyoni yaratayotganda, ruxni yaratar ekan, har bir ruxga muqaddas narsaga qanday yondoshish lozimligini, qaysi yo‘l jannatga olib borishini va do‘zaxdan qanday xalos bo‘lishni alohida o‘rgatgan. U bularning barchasini biror so‘z aytmasdan, biron vositachisiz qilgan. U vaqt takozosiga ko‘ra ruxlarni bir necha marta yerga tushirgan va tuproqda aralashtirgan. Shuning uchun ham yerda o‘shishga turtki beradigan kuchlar va daraxtlar mavjud.

Rux, yuksaklikdan quyiga tushgach, pokligi va yorqinligidan maxrum bo‘lib, o‘z-o‘zini unutadi. Vaqtincha tuban darajada bo‘lsada, u tuprokda aralashib ketgani uchun unda taraqqiyot boshlanadi, chunki rux, har bir tanada imkoniyati darajasida rivojlanadi, borgan sari yanada taraqqiy qilishga intiladi. Agar uning harakati mukammal darajaga yetsa, u boshqa yaxshiroq; tanaga ko‘chib o‘tadi, bordi-yu u o‘sha jismdagi harakatda biror kamchilikka yo‘l qo‘ysa, u yanayam tubanrok, jismga ko‘chadi. Agar tanada biror yomonlik sodir bo‘lsa, rux tag‘in tuproqqa aralashib ketib, bir qancha muddat o‘sha yerda qoladi, undan so‘ng rux tanadan tanaga ko‘chish orqali taraqqiy qila borib, oxiri inson vujudiga o‘tish darajasiga yetadi. Rux, inson vujudiga o‘tganida, dastlab quyi tabaqadagi insonning, oddiy mehnatkashningmi, qulningmi vujudiga o‘tadi, shu tariqa barcha toifadagi odamlarning vujudiga o‘tib-o‘tib, mukammallashib, oxiri lamaning vujudidan joy oladi. Bunday vujudda u shu darajada rivoj topadiki, unda hamma narsani sezish, bo‘lib o‘tgan ishlarni bilish xususiyati paydo bo‘ladi: u har bir jism tarkibida qolgan qaysi ishi rivojlanishga, qaysisi ortga chekinishga sabab bo‘lganini biladi. Mana shu sezish va bilim avliyolik martabasiga yetkazadi. Shu taxlit riyozatlar chekib, shunday martabaga erishadiki, bu martabada u Allohning azaliy ta’limotini, qudratli Allohdan tilsiz, OG‘IZSIZ nimani bilib olgan bo‘lsa, hammasini esga oladi. Bu payg‘ambarlik martabasi bo‘lib, unda rux, Alloh taolodan eshitgan hamma narsani odamlarga yetkazadi. Ularning e’tiqodlari va diniy mazxablari mana

shunday. Ruxga o'lim yo'k, unga abadiy hayot nasib qilgan. Uning jismoniy quvvati yo'qolmaguncha tani ham turaveradi, qachonki jismoniy quvvati qolmasa, unda tani ham o'ladi, ruh esa yaxlit 3 holda qoladi. Kimning ruhiy quvvati shu darajada bo'lsa, uni ko'ra oladi. Ammo uni ko'z bilan ko'rib bo'lmaydi, negaki ko'z jismoniydir. Bu - buddizmning targ'ibotchilaridan biri Shakya Munining asosiy aqidalaridir. Bu barcha xitoyliklarning dini bo'lib, Xitoyda «Shakya Muni», Tibetda «Shaka Tiba» va «Shakya Muni» deyishadi. Tarixiy kitoblarda «Shakya Muni» deb yozilgan. Ayrim kitoblarda Shakya Munini Hindistonning paygambarlaridan biri deb hisoblashadi, ayrimlarning fikriga ko'ra, u hakim bo'lgan.

Tibatliklarning aqidalariga ko'ra odam dini va mazhabiga qarab emas, balki qilgan amallariga qarab jannatga tushadi. Agar birorta musulmon xayrli ish qilsa, u jannatga, yomon ish qilsa, do'zaxga tushadi. Kofir ham xuddi shunday bo'ladi. Ular Muhammad payg'ambar(Alloh taolo unga duoi salomlar yullasin)ning ulug'ligiga shak keltirishmaydi, ammo hamma odamlar uning dinini targ'ib qilishlari shart emas, deb hisoblashadi. Ular: «Sizning diningiz ham haqiqiy, bizniki ham haqiqiy, odam qaysi dinga mansub bo'lishidan qat'iy nazar, u xayrli ishlar QILMOG'I kerak», deyishadi. Aytishlaricha, Shakya Muni shunday degan: «Mendan keyin bir yuz yigirma to'rt mingta paygambar keladi, ulardan oxirgisining ismi Jana Kasapa bo'ladi; u ota-onasiz yetim bo'lib qoladi va uning dini butun dunyoga tarqaladi. u payg'ambar dunyoga kelsa, barcha halqlarning unga itoat qilishi farz bo'ladi, unga birinchi bo'lib iymon keltirgan halk, saodatga erishadi. Men ummatlarimga vasiyat qilaman, toki mana shu gaplarimni to u dunyoga keladigan o'sha muborak zamongacha avloddan-avlodga yetkazishsin». U o'sha payg'ambarning tashqi qiyofasini aniq tasvirlab bergan, ummatlarim mana shunday qiyofadagi payg'ambar paydo bo'lsa, hammadan ilgari borib unga iymon keltirsin, degan. Hozirgi paytda tibatliklar ammo butxonalarda eng katta butni yuqoriga qo'yib, qolgan barcha butlarni unga qaratib o'tqazishgan, bu o'sha Jana Kasapa timsolidir. Ular o'nga asosan, bizning payg'ambar (Alloh taolo unga duoi salomlar yullasin)imizga xos hislatlarni berishgan.

Faqir ularga: «Shakya Muni Jana Kasapa hakida aytgan hamma gaplar bizning paygʻambarimizga xosdir», dedim. «Shakya Muni aytgan: «U bir yuz yigirma toʻrt ming paygʻambardan keyin dunyoga keladi, undan keyin paygʻambar tugʻilmaydi. Ana shu yuz yigirma toʻrt ming paygʻambardan ozginasi tugʻildi, koʻpchiligi Hali kelmadi» deyishadi ular. Fakir ularga, oʻsha paygʻambarlarning hammasi kelib boʻldi, deb tushuntirdim, lekin ular bunga inonishmadi, shu sababdan xato yoʻldan chiqolmay qolishdi. Yana bir ran: Tibatning eng eʼtiborli viloyatlaridan boʻlgan, darmana tomiri keng tarqalgan Zunka degan joyda Xitoy podshohining xitoy yozuvida bitilgan yorligʻini koʻrdim. Uning bir burchagida mazmuni Tibat yozuvida, boshqa burchagida chiroyli nasx xatida uning fors tilidagi tarjimasi berilgan. U yerda: «Podshoh hazrati oliylari oʻz halkiga yaxshiliklar tilab maʼlum qiladiki, mana, Shakya Muni butparastlik dinini qaror toptirganiga uch ming yildan oshdi», deyilgan. U yerda har qanday odam ham tushunavermaydigan allaqanday sirli soʻzlar yozilgan, ular odamlarga esdalik boʻlsin uchun saqlangan. Yana butxonaning tuzilishi, qurilishi, tartib-nizomlari haqida koʻp soʻzlar yozilgan. Qisqasi, u yerda yozilishicha, Shakya Muni bundan uch ming yil ilgari yashagan emish. Yorlikda hijriyga oʻxshamaydigan, bizga nomaʼlum yil koʻrsatilgan. Yorliqning ahvol ruxiyatiga qaraganda unga aftidan yuz yil ham bulmagan (tagʻin ham Alloh biladi). Faqir Zunkada 940 yil rabiul avval (1533 yilning oktyabr-noyabr) oyida boʻlganman. Yana bir narsani eslatsam: Tibatda yovvoyi qoʻtoslar bor, u bexad qoʻrqinchli, yirtqich hayvon. Agar u birortaga tashlansa - suzadimi, tepadimi yoki tepkilaydimi, har qanday holatda ham nobud qiladi. Bordi-yu shu yoʻl bilan oʻldirolmasa, u odamni tishlab yukoriga shunday otadiki, odam yigirma gaz yukoriga uchib chiqib, u yerdan pastga tushadida, tirik qolmaydi. Bitta qoʻtosning goʻshti oʻn ikkita otga yuk boʻladi. Bir odam qoʻtos goʻshtining koʻkrak qismini (oldingi bitta oyogʻi) koʻtarolmaydi. Oʻsha yoqlarda yurgan kezlarimda biz bir qoʻtosni oʻldirib, goʻshtini yetmish kishiga" taqsimlagan edik. Har bir kishiga tekkan goʻsht toʻrt kunga yetdi. Bu hayvon Tibatdan boshqa yerda yashamaydi.»⁵⁶

⁵⁶ Муҳаммад Ҳайдар мирзо. Тарихи Рашидий. Т. И. Шарқ, 2010. –Б.596.

Muhammad Haydarning mirzoning asarida Tibet aholisining turmush-tarzidan tashqari, ularning dini to'g'risida ham ko'pgina qimmatli ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Ularning dini ham turmush tarzi singari g'aroyibdir, Lekin shu bilan birga ularning dinida ham ezgulikka chorlovchi amallarni ko'rishimiz mumkin. Shunisi e'tiborga loyiqki, ular Muhammad payg'ambarini ham tan oladilar. Umumun olganda Tibet aholisi o'z turmush-tarzi va, yashash sharoitidan kelib chiqib o'z diniy e'tiqodlariga amal qilishi to'g'risida asarda ta'kidlab o'tiladi.

Qisqacha qilib aytganda Muhammad Haydar mirzoning "Tarixi Rashidiy" asari Tibet aholisining madaniyati, urf-odat an'analarini, turmush tarzini, diniy qarashlarini bir so'z bilan aytganda Tibet aholisi etnografiyasini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa

Ishning xulosa qismida takidlash joizki, «Tarixi Rashidiy» asari XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi tarixiy voqea-xodisalarning, ijtimoiy-madaniy, tarixiy siymolar hayoti va faoliyatlarini yoritishda mushtarakligi uchun ham lutfan «Tarixi Rashidiy»ni forsiy tiladagi noyob manba deyish mumkin. «Tarixi Rashidiy»ning ahamiyati xaqida gap ketar ekan, bu qomusiy asarning «Boburnoma»da yoritilmagan ayrim voqeliklar, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning barchasi manbada o'z aksini topgan. Ba'zan, o'sha davr voqealariga aniqlik kiritish, to'ldirishda hatto Gulbadanbegimning «Humoyunnoma», Xondamirning «Xabib us-siyar» («Dustlar tarjimai xoli») asarlaridan ko'prok, ma'lumotlar beruvchi noyob manba ekanligini inobatga OLMOG'IMIZ darkor.

Yapon olimi Eyji Mano Markaziy Osiyoning XV-XVI asrlardagi tarixini «Boburnoma» va «Tarixi Rashidiy» asosida yaratish mumkinligi tajribasini «Bobur va uning davri» nomli fundamental tadqiqotida isbotlab berdi. Ushbu asar Sharqiy Turkiston va Tibet tarixiga oid muhim manba bo'lib. unda mintaqa aholisining moddiy, ma'naviy va turmush tarzini yaxlit tasavvur etishga imkon beradi degulik xulosaga kelish mumkin. Zero, «Boburnoma» tarixiy biografik asar deb atashga munosibroq. tuyilsa, «Tarixi Rashidiy» aksincha memuar asarga nisbatan tarixiylik uslubi ustunlik kiladigan manbadir. Shuning uchun «Vaqoe'» («Boburnoma») da aks etgan tarixiy madaniy hududlardan, Muhammad Haydar mirzo voqealarni bayon etgan joylarning salmog'i kengroqdir. Ammo har bir asar o'z ahamiyati jihatidan beqiyos asarlar hisoblanadi. Shu ma'noda «Boburnoma» ijodkorida adiblik salohiyati, «Tarixi Rashidiy» muallifida tarixchilik iktidori ustuvorlik kiladi.

Birinchi bobda Mauhammad Haydar mirzo hayoti va faoliyati xususida ma'lumotlar o'rganilib, uning "Tarixi Rashidiy"asari va unda yoritilgan tarixiy voqealar tahlil qilib o'rganib chiqildi. Xususan XV-XVI asrlarda Markaziy Osiyo va unga tutash mintaqalarda hukmronlik qilgan, Temuriylar, Boburiylar, Shayboniylar, Safaviylar, Mo'g'ul xonlari, Qozoq xonlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar asarda keltirilgan ma'lumotlar asosida o'rganildi. Misol uchun asarda keltirilgan Shayboniyxon va Ismoil Safaviy o'rtasidagi munosabatlarga oid ma'lumotlar

boshqa asarlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan qiyoslab o'rganildi.

Ikkinchi bobda ko'zda tutilgan Sharqiy Turkiston tarixiga oid ma'lumotlar va ularning tahlili ikki paragrafga bo'lib, o'rganildi. Jumladan uning birinchi paragrafida Sharqiy Turkiston tarixiga oid ma'lumotlar boshqa manbalarda keltirilgan ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilinib, tasniflab o'rganib chiqildi. Ikkinchi paragrafda Sharqiy Turkiston aholisining etnografiyasiga oid ma'lumotlar yaxlit tizimga solinib, boshqa asarlardagi ma'lumotlar bilan o'rganib chiqildi.

Uchinchi bobda esa, asarda Tibet o'lkasi va aholisining tasvirlanishi o'rganib chiqildi. Bobning birinchi paragrafida asarda keltirilgan Tibet o'lkasiga oid ma'lumotlar yaxlit tizimga solib, tasniflab o'rganib chiqildi.

Mazkur ishda rejaga ko'ra Qoshg'ar, Yorkand, Xo'tan, Tibet viloyatlaridagi shaharlar, hamda bu hududlardagi xalqlarning urf-odatlar, rasmiy qoidalari, xo'jalik hayoti, turmush tarzi batafsil o'rganilib, birinchi bor ilmiy muamolaga kiritildi. Ta'kidlash joizki, biz tadqiq etayotgan viloyatlarning tarixi, siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning sharhi boshqa birorta asarda bunchalik darajada batafsil bayon qilinmagan. Garchi ba'zi tarixiy asarlarda tasodifiy, ayrim bildirilgan fikrlar noaniq va qisqa ma'lumotlardir. "Tarixi Rashidiy" asarida avval podshoh va xonlarning olti sulolasi silsilasi keng ufqlarda juda ustalik bilan tiziladi va ularning tutashuv halqalariga alohida ahamiyat beriladi: Temuriylar, Boburiylar, Shayboniylar, Mo'g'ul xonlari, Qozoq xonlari, Safaviylar shajaralari uzviy muntazam tarixiylikda yoritiladi. Bundan tashqari asarda qirg'iz biylari hukmronligi ham tilga olinadi. Mashhur tarixiy fundamental asarlarda bunchalik ko'p sulolalik manzarasi kam kuzatiladi.

Shuning uchun ham "Tarixi Rashidiy" muhim tarixiy manba sifatida XVIII asrdan boshlab hozirgacha dunyoning 10 dan ortiq, tillariga tarjima qilingan asardir. Jumladan, ingliz (bir necha marotaba), nemis, fransuz, xitoy, qozok, turk, uyg'ur, rus, kirg'iz va boshqa tillarga o'girilganini hisobga olsak, o'z tariximiz va ma'naviyatimizning mumtoz manbaidir.

Eng muhimi voqea-hodisalar talqinining izchilligi, muallifning og'zaki, ishonarsiz ma'lumotlarni asarga kiritmasligi, tarixiy arboblarning shaxsiyatiga xaqqoniy,

oqilona munosabat talkinda fikr tiniqligi, balandparvoz, murakkab jumalardan qochish, samimiylilik tarixchi va adib Muhammad Haydar mirzoning uslubini belgilaydi.

Mirzo Haydar O'rta Osiyo tarixnavisligining an'alariga sodiq qolgan holda tarixchi sifatida, bu soxaga fors tilida memuar janrini singdirish singari Boburona yangilikni kiritdi. Uning ikkinchi ixtirosi: bir tarixiy asarni boshdan oxirigacha atayin ikki marotaba bir-birini to'ldirib yaratish tajribasini sinovdan muvaffaqiyatli o'tkazdi. «Tarixi Rashidiy»da an'anaviylilikni bir necha yo'nalishda kuzatish mumkin: **birinchidan**, boshqa tarixiy asarlardan o'zlashtirib yoki umumlashtirib qayta xikoya qilish yuliga kirmasdan asarga undan ortiq boblarni «Zafarnoma» va «Tarixi jahonkushoy»dan iqtibos tarzida kiritadiki, bu muallifning ustoz tarixchilar oldidagi sadoqatli ta'zimidir; **ikkinchidan**, «Zafarnoma» va «Boburnoma»larda uchraganidek asar matniga vokea-xolatlarga alokador she'riy parchalar kiritish. Ta'kidlash joizki, Sharafiddin Ali Yazdiy she'riy parchalari o'ziniki bo'lsa, «Tarixi Rashidiy»dagi she'riy parchalar qisman muallifniki, ko'proq boshqa mashhur manbalardan keltirilgandir. Ushbu she'riy parchalar matnga shunchaki badiiy bezak emas, balki tarixiy voqea yoki xayotiy xodisalarning falsafiy, ahloqiy-ta'limiy mohiyatini teran ifodalovchi mutafakkir shoir mushohadalari izxoridir.

Mazkur asarda muallif Sharqiy Turiston va Tibet tarixi, geografiyasi, toponimikasi va etnografiyasiga oid ma'lumotlarga asosiy e'tiborni qaratadi. Shu asnoda manba Markaziy Osiyo xalqlari tarixining munozarali, muammoli ayrim qirralariga aniqlik kiritish, xaqqoniy va xolisona o'rganishga xizmat qiladigan noyob asarlar sirasiga kiradi deb aytish mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida ishga ko'plab manba va adabiyotlar jalb qilindiki, ular asnosida "Tarixi Rashidiy" da keltirilgan ayrim ma'lumotlar qiyosiy tahlil etildi va bu dissertatsiyaning ilmiy sifatini oshirishga ko'mak berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I.O'zbekiston Respulikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari.

- I.1. Каримов И.А. Ватан саждагоҳ каби муқаддас.—Тошкент: .Ўзбекистон, 1995.
- I.2. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. — Тошкент:..Шарқ, 1998.
- I.3. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интилоқда, —Тошкент:.. Ўзбекистон, 1999.
- I.4. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қурамыз. —Тошкент:.. Ўзбекистон, 1999.

II.Manbalar va adabiyotlar

- II.1. Абдураззоқ Самарқандий.Матлаи саълайн ва мажмаи баҳрайн. —Тошкент: Ўзбекистон, 2008.
- II.2.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами.20 жилдлик 13 жилд Мажлис ун-нафоис.—Тошкент: Фан,1997
- II.3. Мадраимов А, Фузалов Г. Манбашунослик. —Тошкент, 2008.
- II.4.Абулғозий.Шажараи турк.— Тошкент,1992.
- II.5.Аҳмедов Б.А. Ўзбек улуси. —Тошкент: Мерос,1992.
- II.6.Аҳмедов Б.А. Тарихдан сабоқлар. —Тошкент: Ўқитувчи,1993.
- II.7.Аҳмедов Б.А. Историка –географическая литература .Средней Азии XVI-XVII вв. —Тошкент: Фан,1985.
- II.8.Бартольд В.В. История турецко-монгольских народов. Соч. Т.V. —Москва,1968.
- II.9.Бартольд В. В. Двенадцат лекций по истории турецких народов Средней Азии. Соч. Т.V. — Москва, 1963.
- II.10.Колесников А.А .Восточный Турестан.Алма-Ата.1988.
- II.11.Заҳириддин Муҳаммад Бобур.Бобоурнома. —Тошкент: Шарқ, 2002.
- II.12.Малов С. Е. Язык желтых уйгуров. —Алма-Ата,1957.
- II.13.Муҳаммад Ҳайдар Мирзо .Тарихи Рашидий. Тошкент Шарқ.2010

- П.14.Муҳаммадёр ибн Араб Қатаған. Мусаххир ал-билод(мамлакатларнинг эгалланиши) –Тошкент, 2009.
- П.15.Муҳаммад Солиҳ. Шайбонийнома. –Тошкент: Фан, 1961.
- П.16.Позднеев Д. Исторический очерк уйгуров. Спб.1899.
- П.17.Рашид ад-дин.Сборник Летописий.– Москва-Ленинград, 1952,
- П.18.Шарафиддин Али Яздий.Зафарнома. Тошкент. Шарқ.1997.
- П.19.Шониёзов Карим.Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Тошкент: Шарқ, 2001.
- П.20.Ҳофиз Таниш Ал-Бухорий .Абдулланом. –Тошкент, 1999.